

Mutasaddildan javob keldi Maktab binosi yaroqsiz, kollejning esa egasi bor!..

Gazetamizning 2020-yil 25-mart kuni chop etilgan 13-sonida "Maktab binosi nega MTGga olib berildi?" maqolasi chop etilgan edi.

3-bet

Maktabgacha ta'limda ekologik ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyot

O'zbekistonning maktabgacha ta'lim bosqichida ekologik ilm boshqa ta'lim turlaridan tubdan farq qiladi.

8-9-betlar

Kuch — bilim va tafakkurda

Ma'rifat

1931-yildan chiqa boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2020-yil 27-may, chorshanba № 17 (9290)

Xalq ziyolilari gazetasi

O'zbek tili darsliklari takomillashtirilishi kerak!



So'nggi yillarda darsliklarning sifatini yaxshilash borasida keng ko'lami ishlar olib borilmoqda. Xususan, 2013–2017-yillari "Kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan DTS va o'quv dasturlari loyihalari" asosida olib borilgan tajriba-sinov ishlari bo'lib o'tdi. Umumiy o'rta ta'lim fanlari kesimida olib borilgan mazkur loyiha ustida ishlashga mamlakatimizning ilg'or o'qituvchilari jalb etilgan edi. Men ham bu jarayonga o'zbek tili fanidan baholi qudrat o'z hissamni qo'shishga muayassar bo'lganman.

2015-yildan boshlab bosqichma-bosqich yangi avlod darsliklari nashrdan chiqa boshladi. Darsliklarni takomillashtirish yo'lida olib borilgan tadqiqotlar nechog'lik samara berdi? O'zbek tili darsliklarida sifat va mazmun jihatdan nimalar o'zgardi? Albatta, mehnatlar mahsulining e'tirofi jihatlar ko'p bo'ldi:

- ✓ Darsliklarning dizayn va sifati yaxshilandi.
- ✓ Mavzularga oid ilustratsiyalar sifat tubdan yangilandi (Rangsiz, xira rasmlar o'rinda o'quvchilarning diqqatini tortuvchi, mavzularni izohlovchi, bugungi davr bilan bog'liq bo'lgan rangli tasvirlar o'rin oldi).
- ✓ O'quvchilarning yosh xususiyatiga mos nutqiy mavzular kiritildi.

- ✓ Mavjud takroriy mavzular o'zgartirildi.
- ✓ O'quvchilarning lug'at boyligini oshirishda me'yor ta'minlandi.
- ✓ Grammatik tushunchalar ixcham qoidalar, jadvallar asosida berildi.
- ✓ Mavzularga doir bilimlarni o'zlashtirish, mustahkamlash uchun mashq va topshiriqlarning sifati va mazmuni yaxshilandi.
- ✓ O'quvchilarga murakkablik qilgan mumtoz adabiyot vakillari haqidagi mavzular o'rinda XIX–XX asr adabiyotining yetuk namoyandalari hayoti va ijodiga doir mavzular kiritildi.

5-bet

Bizni internetda ham kuzating! www.marifat.uz /marifat.uz @marifatziyo



Test savollarini chop etishni boshladik

Davlat test markazi bilan hamkorlikda aprotatsiyadan o'tgan test savollarini e'lon qila boshladik.

Ushbu sonda ingliz va nemis tili (12–13-betlar) fanlaridan

test namunalari nashr qilinmoqda!

Obuna bo'lishni unutmang!

O'qituvchi
nimani
o'ylaydi?



Kecha men oq ko'ylak, galstukda tush paytigacha maktabda bo'ldim. Aylandim, dam oldim, yana aylandim... Qisqasi, sevimli ilm maskanimizni sog'inib kelgan edim. Bag'rim to'lmadi... Zerkidim yolg'izlikda... Ko'z o'ngimdan so'nggi qo'ng'iroq jarangini eshitib, hayajonga to'lgan o'quvchilar o'tishdi. O'quvchilarni bag'riga bosib, omad tilab mustaqil hayot yo'liga kuzatolmagan hamkasblarim xayolimdanda o'taverdi. Bu o'kinch ila yodga olinadigan yagona yil bo'lib qolsin, deb niyat qildim!

Azizbek IKROMOV

O'qituvchilarning katta qismi badiiy adabiyotdan uzoqlashib ketgani ayni haqiqat. Nazarimda, kitob o'qiyotgan o'qituvchilar yaxshi natijaga ega bo'lishmoqda. O'tgan yilgi attestatsiya savollari u qadar murakkab emas edi. Faqat mantiqsiz savollar uchragandi. Kitob o'qimagan, qo'llanma varaqlamagan o'qituvchi uchun oddiy savollar ham murakkablik qiladi.

Dilfuza G'AZNAYEVA

Bizda ta'lim hujjatlarini, jurnalni elektronlashtirish uchun sharoit mutlaqo talab darajasida emas!

Internet tezligi past, internet paketlar qimmat. Har bir o'qituvchi avval noutbuk bilan ta'minlanishi shart edi, bu o'qituvchilarning o'z gardaniga tushdi. Poytaxt o'qituvchilarni shuncha esankiratgan tizim butun respublikaga joriy etilsa..., u yog'ini taxmin qilavering.

Bibiniso BEGMATOVA

Tarbiya fani faqat rivoyat-u hikoyalardan iborat bo'lib qolmasdan, 80 foiz hayot tajribalaridan saboq beruvchi dars bo'lishi kerak.

Murodjon O'RINOV

Tajriba

O'quvchi hamkoringiz bo'lsin

"So'zlab bering — esdan chiqaraman. Ko'rsating — eslab qolaman. Meni jalb qiling — o'rganaman". Bu xitoy xalq maqolini ta'lim-tarbiya jarayonining asosi qilib olish, zarur va kerakli natija garovidir.

Shuning uchun ham bugungi kun pedagogi — innovator, tashabbuskor, ijodkor va albatta zamon bilan hamnafas bo'lishi shart. Ta'lim-tarbiya jarayonida AKTdan foydalanmaslikning o'zi bir qolipda qotib qolishdek gap. AKTdan foydalanish o'ziga xos xususiyatlarning formulasini, ya'ni unumdorlik, mukammallik, ketma-ketlik, moslashuvchanlik, rivojlanish, mutanosiblik, keng ko'lamlilik va ko'rgazmalilik kabi imkoniyatlarni yaratadi.

Darsni o'quvchi va o'qituvchi hamkorligida olib borish ham yaxshi samara

beruvchi usullardan biri. Hamkorlik bu birgalikda ishlamoq, izlanmoq, xulosa chiqarmoq va ta'sir qilmoqdir. O'qituvchi bu jarayonning asosiy va yagona boshqaruvchisi bo'ladi.

O'qituvchi o'quvchiga zarur bo'lgan ma'lumotni manbadan yetkazish, metodlarni to'g'ri tanlash, o'qituvchi — o'quvchi, o'quvchi — o'quvchi, manba — o'quvchi aloqasini, va albatta, qayta aloqani to'g'ri rejalashtirishi jarayonni samarali boshqarishga yordam beradi. Ushbu texnologik jarayonda ma'lumot almashuvini quyil-

va baholash jarayoni.

Ushbu ketma-ketlikni ishlatishda o'qituvchi tahlil jarayoni xulosasiga ko'ra o'zgarish va qo'shimchalar kiritadi va jarayonni boshqaradi.

Hamkorlikdagi ta'lim pedagogi va o'quvchilarning ta'limiy faoliyat jarayonida birgalikda rivojlanishi, bir-birini chuqur tushuna olishi, bir-birlariga nisbatan qalban yaqinlikni his qilishi, faoliyat bosqichlari va shu bosqichlarda erishilgan natijalarni hamkorlikda tahlil qilishidan iborat bo'lib, ilg'or, rivojlantiruvchi g'oyalarni o'zida aks ettiradi.

Mehribon IBODULLAYEVA,
Urganch shahridagi 1-maktabning
informatika va axborot
texnologiyalari fani o'qituvchisi

dagi uch yo'l orqali ko'z oldimizga keltirishimiz mumkin:

1. Asosiy yo'l — ma'lumotni (ta'lim mazmuni) manbadan o'quvchiga yetkazish jarayoni.

2. Boshqarish yo'li — jarayonni rejalashtirish, o'zlashtirilishini kuzatish, zarur bo'lganda qo'shimcha va o'zgarishlar kiritish, asosiy harakatlanayotgan ma'lumotni nazorat qila olish.

3. Qayta aloqa yo'li — o'quvchidan o'qituvchiga qaytadigan ma'lumotni olish

Pandemiya sabab ta'lim davomiyligini ta'minlash maqsadida jarayonlarni onlayn tartibda o'tkazish yo'lga qo'yildi. Teledarslarni ko'rib bo'lgach, mavzuni mustahkamlash va o'quvchining o'rganayotgan bilimni nazorat qilish uchun tashkil etilgan "Telegram-sinf" guruhi faoliyati o'qituvchi va o'quvchida masofadan mashg'ulot olib borish va unda ishtirok etish ko'nikmasini shakllantirdi.

Avvalo, ona tilimiz, keyin boshqa tillar...

Qaysi tilda o'ylaysiz, fikrlaysiz, xayol surasiz va orzu qilasiz? O'ngingizdagi kunlik tashvishlaringizga qaysi tilda javob izlaysiz? Albatta, ona tilingizda! Sizning bir bo'lagingizga aylangan ona tilingizdan xoh foydalaning, xoh foydalanmang, u hamisha kechinmalaringiz va hissiyotlaringizning bir qismi bo'lib qoladi. Begona yurtlarda ona tilingizda suhbatlashayotganlarni eshitganingizda mehr, sog'inch va ruhiy xotirjamlikni his etasiz.

Ingliz tili fani o'qituvchisi bo'lsam-da, o'quvchilarning inson avvalo o'z ona tilini mukammal bilishi kerakligi, ona tilining grammatikasini yaxshi tushunsa, boshqa tillarning leksik va morfologik tuzilmasini tez va oson o'zlashtira olishini ko'p ta'kidlayman.

Bugungi kunda ona tilimizga yanada ko'proq e'tibor berilishi zarurligini qalban his etgan holda, o'z hayotiy tajribalarim bilan o'rtoqlashmoqchiman. 2018-yili "Yilning eng yaxshi chet tili o'qituvchisi" ko'rik-tanlovining g'oliblari Buyuk Britaniyaning Norvich Til ta'limi universitetida 2 haftalik malaka oshirish imkoniyatini qo'lga kiritdi. Shular qatori men ham Shotlandiyaning Glazgo shahridagi Kaledoniya universitetida ta'lim olishga muvaffaq bo'ldim. Ta'lim kurslaridan tashqari, ularning madaniyati, san'ati va urf-odatlarini hamda adabiy tilning o'qitilish jarayonini chuqurroq o'rganishga harakat qildik. Barcha savollarimizga Kaledoniya universitetining trener o'qituvchisi Alan Mackenziedan javob oldik. Uning aytishicha, o'quvchilarni bitirayotganlarida kamida 2, 3 chet tilida muloqot qila olishlari kerak, lekin qanchalik ko'p chet tillarni o'rganmasin, asosiy e'tibor ona tilini mukammal bilishiga qaratilgan. Sababi ona tili nafaqat muomala vositasi, u insonning his-tuyg'u, kechinma va hayot tarzi bilan doimiy bog'liqdir.

"Ingliz tili o'qitilish tizimi bog'cha davridan to'rt ko'nikma asosida olib boriladi, ya'ni maktabgacha bo'lgan davrda va 1-sinfdan boshlab o'qish, yozish, eshitish va gapirish ko'nikmalari shakllantiriladi. Yozuvda imlo qoidalariga amal qilish talab etilsa, o'qishda matnlarning ravon o'qilishi, gapirishda yoshiga mos matnlar va mavzularda erkin va mazmunli fikr bildira olishi, ona tilida nutqiy jarayonlar va tasavvur olamining kengligiga e'tibor qilinadi. Eshitishda esa o'quvchilarning matnlarni tushunish, analiz qilish, mazmunini saqlagan holda so'z boyligidan foydalanib ifoda etish kabi vazifalar orqali ona tilini mukammal egallashadi. Qo'shimcha amaliy yordam sifatida maktablarda ota-onalar uchun

ta'limiy maslahat xonalari mavjud bo'lib, nafaqat o'qituvchi, balki ota-ona ham ona tili grammatikasi, imlo va leksikasidan yetarlicha bilimiga ega bo'lsagina, farzandlari bilan samarali shug'ullana oladi. Maktablarda bepul to'garaklar, videodarslar to'plami, savodxonlik saytlari va boshqa amaliy mashg'ulotlar mavjud bo'lib, o'quvchilarning savodxonligini aniqlab beradigan turli tizimli imtihonlardan foydalanib, turlicha uslublarda dars o'tilishi yo'lga qo'yilgan", deya ma'lumot berdi trenerimiz.

Glazgo shahri ko'chalarini sayr qilar ekanmiz, bolalarni deyarli uchratmadik. Ammo Britaniya muzeyiga borganimizda nafaqat katta yoshli insonlar, o'quvchi, talabalar, balki hali emaklaydigan bolalarini olib borgan ota-onalarni ko'rib hayron qoldik. O'quvchilarning tilga bo'lgan mehri, hurmat va e'tibori, ana boringki, barcha dunyoviy va diniy bilimlarni chuqur egallashi nafaqat o'qituvchilar, ular bilan bir qatorda ota-onalarning ham asosiy vazifasi ekanligi e'tiborimni tortdi va bunga juda havas qildim. Muzeyning astronomiya bo'limida o'g'luga koinot haqida ma'lumot berayotgan ota, qizlariga soddah va qiziqarli tilda Qirolik davri tarixi haqida so'zlab berayotgan onalar, o'quvchilarga topshiriqlarni tushuntirgach, amaliy vazifalari uchun 20 daqiqa vaqt ajratib, ularning kichik tadqiqotlarini amalga oshirish jarayonlarini zavq bilan kuzatib o'tirgan o'qituvchilar, kichik yoshdagi farzandidan rassomlik haqida o'z fikrini bayon etishini so'rayotgan ona va boshqa holatlar mening shunday aniq xulosaga kelishimga sabab bo'ldi: ta'lim va tarbiya o'tana va o'qituvchi o'rtasidagi uzviy hamkorlikni talab etadi. Farzandlarimizning adabiy tilga bo'lgan e'tiborini oshirish, savodxonlik darajasini yanada rivojlantirish, tasavvur dunyosini kengaytirish uchun o'qituvchilar bilan birgalikda harakat qilishimiz nihoyatda zarur vazifamizdir, zero bu mehnatlar o'z natijasini bermay qolmaydi.

Mehriniso NOROVA,
Narpat tumanidagi
47-maktabning ingliz tili
fani o'qituvchisi

Onlayn to'garak

Yozgi ta'lim ham boshlanayapti. O'quvchining bo'sh vaqtdan unumli va maqsadli foydalanishini onlayn tarzda yo'lga qo'yish yaxshi samara berishi mumkinligini onlayn dars mashg'ulotlari ko'rsatib berdi. Demak, tashkil etilgan guruh faoliyatini yozgi ta'limda ham davom ettira olamiz. Keling, ona tili va adabiyot fanlari maqsadidan kelib chiqib, onlayn to'garakni tashkil qildik, deylik. Xo'sh, buning uchun qanday mashg'ulotlar o'tish mumkin? Bu boradagi tajriba va takliflarimni siz bilan o'rtoqlashmoqchiman.

Bilamizki, so'zlovchining nutqi ravon, aniq va ixcham, shuningdek, ta'sirchan bo'lsa, tinglovchi ma'lumotni tez qabul qiladi, mushohada qilishiga yengillik bo'ladi, oson tasavvur orqali tahlil qiladi va xulosa chiqaradi. O'quvchilarning kelgusida qaysi soha egasi bo'lsin, eng avvalo, go'zal nutq sohibi bo'lsin. Yozgi ta'lim mashg'ulotlarini nutqiy savodxonlikni rivojlantirishga qaratsak-da, to'garak nomini ham "Yosh suxandonlarning onlayn-klubi", deya nomlasak. Guruh a'zolari masofadan turib aloqaga kirishganligi sabab, o'yinlar asosan zanjir usulida tashkil etilgan ma'qul. Bu tartibdagi o'yin sharti — navbat kelgan a'zo javob berolmasa, zanjir halqadan uziladi va keyingi ishtirokchiga o'rnini bo'shatib beradi. Shu tariqa har bir o'yinning g'olibi aniqlab boriladi (vaqt kelishilgan tartibda belgilanadi). Ana endi, onlayn-klubda o'tkaziladigan ta'limiy o'yinlar haqida gaplashamiz. Quyida ta'limiy o'yinlardan namunalar tavsiya etmoqchiman:

1. "So'z o'rnida so'z" o'yinini bir necha bosqichda olib boramiz. Ma'nodosh, shakldosh, zid ma'noli so'zlar, talaffuzi bir-biriga yaqin har turdagi paronimlar, ko'chma ma'nodagi so'zlar, iboralar, tasviriy ifodalar, o'xshatishlardan foydalanish o'rnini belgilay olsa, demak, o'quvchi duch kelgan tasodifiy auditoriya bo'lsa ham nutqini moslashtirib oladi, shuningdek, so'z boyligida sezilarli o'zgarish bo'lganiga guvoh bo'lasiz.

2. "Izohi mendan!" o'yinida boshlovchi tomonidan nutqda ishlatiladigan, ammo izohlab so'zlar yoki shevaga xos so'zlar ma'nosini sharhlash uchun bir so'z aytildi, ikkinchi a'zo javob beradi va o'zidan keyingi ishtirokchiga yangi so'z aytadi. Bu o'yinda shartni biroz

o'zgartiramiz, agar ishtirokchi o'z o'rnida javob berolmasa, yana bir ishtirokchining javob berolmaganidan foydalanib qatnashish imkoniyatini qo'lga kiritadi.

3. "Xatosini top" o'yinida, o'quvchining yozma va og'zaki nutqida ko'proq kuzatiladigan so'zlar yoki gaplarni saralab, aynan xato shaklida bayon etilgan matn guruhga beriladi. Kim ko'p xato topsa, bu o'yinning g'olibi bo'ladi. Imloviy, ishoraviy, uslubiy xatolar, ayniqsa, uslubiy xatolar tuzilayotgan nutqning aniqligini yo'qotadi. O'yinning afzalligi ham ana shunda. O'quvchi nutqining ravon va aniqligi ta'minlanadi.

4. "Davom ettir" o'yinida ishtirokchilar o'rtaga tashlangan mavzu bo'yicha fikrlarini navbat bilan aytib boradi. Shartga ko'ra, fikrlar ma'no va mazmun jihatidan bir-birini davom ettirishi kerak. Takroriy fikr aytgan ishtirokchi o'yinni tark etadi. Qarabsizki, butun guruh a'zolari ishtirokida chiroyli matn yaratiladi. Oxirgi fikri bilan matn xulosalagan ishtirokchi g'olib bo'ladi.

5. "Mening fikrim" "Davom ettir" o'yinining aksi bo'lib, bahs uchun tanlangan muammoli vaziyat bayon etiladi. Ishirokchilar o'z munosabatini bildirib, fikriga sodiq qolgan holda uni himoya qilishi kerak. Agar ishtirokchi o'z fikrini o'zi rad etish ma'nosidagi fikr aytisa, o'yinni tark etib, vaziyatni kuzatadi. Bu ta'limiy o'yin bolada har tomonlama mustaqil yondashuv, boshqaruvchilik ko'nikmasini shakllantiradi.

6. "So'z sizga!" o'yini chiroyli nutq egasini aniqlab beradi. Motivatsiya beruvchi, aytaylik, "Men baxtliman!", "Meni buyuk ishlar kutib turibdi" kabi mavzular tanlanib, har bir ishtirokchi alohida nutq matnini tayyorlaydi va taqdimotini o'tkazadi. Bunda, albatta, me'yor belgilanadi: so'z miqdori, vaqt, adabiy til qoidalariga amal qilish.

Shu tariqa, onlayn-klubda "Radio-nutq", "Intervyu", "Asar bilimdoni", "Zakovat" kabi didaktik o'yinlar ham tashkil etiladi. Maqsad bitta: o'quvchining nutqiy savodxonligini, nutq madaniyatini rivojlantirish; ijodkorlik, kreativlikni shakllantirishdir.

Dildor NURMUHAMMEDOVA,
Termiz tumanidagi
9-maktab o'qituvchisi

Hozirgi vaqtda korrupsiyaga qarshi ta'lim dasturlari Indoneziyaning 33 ta viloyatidan 11 tasida yo'lga qo'yilgan.

Mutasaddilardan javob keldi

Maktab binosi yaroqsiz, kollejning esa egasi bor!..


Gazetamizning 2020-yil 25-mart kuni chop etilgan 13-sonida "Maktab binosi nega MTTga olib berildi?" maqolasi chop etilgan edi. Unda ma'lum qilinishicha, Namangan viloyati Chortoq tumanidagi 18-umumta'lim maktabining 1974-yilda qurilgan binosi hozirda ushbu maskanda tahsil olayotgan 520 nafar o'quvchi sig'imiga mos kelmaydi.



Shu bois 2018-yilda "Obod qishloq" davlat dasturi asosida maktabda qurilish-ta'mirlash ishlari boshlanadi. Ammo ta'lim maskani jamoasi va o'quvchilarning orzulari endigina ushlay deb turgan bir vaqtda maktab-

ning mukammal qurilishi boshlangan o'quv binosi maktab tasarrufidan olinib, shu qishloqda joylashgan 27-maktabgacha ta'lim tashkilotiga berilgan. Mazkur holat ortidan yana ko'plab muammolar vujudga keladi. Ushbu maqola yuzasidan Chortoq tuman xalq ta'limi bo'limi munosabat bildirdi. Ulardan kelgan xatni e'tiboringizga havola etamiz.

"Chortoq tuman xalq ta'limi bo'limi sizga shuni ma'lum qiladiki, haqiqatan, hozirgi kunda Alixon qishlog'i, Alixon MFY hududida joylashgan tuman xalq ta'limi bo'limi tasarrufidagi 18-sonli umumtalim



maktabi o'z binosining 360 o'rinni asosiy binosida faoliyat olib bormoqda. 27-sonli maktabgacha ta'lim tashkiloti 18-sonli maktabning 320 o'rinni binosiga ko'chirilgan. 2018/2019-o'quv yilida Tuman hokimligining 12-iyul 2018-yildagi 1121-sonli qarori asosida 27-sonli maktabgacha ta'lim tashkilotiga olib berilgan. Hozirgi kunda maktabda

360 o'rinni maktab binosida 515 nafar o'quvchi to'la 2-navbatda tahsil oladi. Bu esa sinfdan tashqari mashg'ulotlarni muntazam o'z vaqtida o'tishga sharoit yo'qligini ko'rsatadi. Qarorda maktabning yuqori sinf o'quvchilari Alixon qishlog'idagi Alixon MFY hududida joylashgan Alixon ijtimoiy-iqtisodiy kolleji binosiga chiqib o'qishgan. Qish mavsumi boshlanishi munosabati bilan Kollej binosining isitish tizimi muntazam nosoz bo'lgani sababli, qish mavsumida o'quvchilar 18-sonli maktabga chiqib o'qishni davom ettirishgan. Hozirgi kunda 18-sonli umumta'lim maktabining binosida 2-navbatda ta'lim-tarbiya olib borilmoqda.

Kollej binosi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan Namangan muhandislik iqtisodiyot universiteti tasarrufiga filial sifatida o'tkazilgan. Biroq hozirda kollej binosi



bo'sh holatda turibdi. Agar imkoniyat bo'lsa bo'sh turgan kollej binosini Chortoq tuman xalq ta'limi bo'limiga qarashli 18-sonli umumta'lim maktabiga olib berilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday bo'lishiga sabab, 27-sonli maktabgacha ta'lim tashkiloti 1954-yilda xom g'isht bilan qurilgan. Bino zamonaviy rekonstruksiya talabiga javob bermaydi".

Bolalar korrupsiyaga qarshi qanday tarbiyalanadi?

Korrupsiyaga qarshi kurashni shaxsiy mas'uliyat sifatida qabul qiluvchilar ozchilikni tashkil qiladi. Ya'ni buni davlat amalga oshirishi kerak deb hisoblaydiganlar ko'p.

Holbuki, har bir fuqaroning korrupsiyaga qarshi qilishi lozim bo'lgan muhim vazifasi bor — kelajak avlodni korrupsiyaga qarshi qilib tarbiyalash. Masalan, oilada ota-ona, bog'chada tarbiyachi, maktabda o'qituvchi bo'lib bolalarga nima yaxshi, nima yomonligini bosqichma-bosqich anglatib boramiz. Choynig issiq, anhorning chuqur, toshning qattiq, yo'lning o'nqir-cho'nqir ekani qanday o'rgatsak, bolani pishish, cho'kish, yiqilish kabi kutilayotgan oqibatlardan qanday himoyalasak, bu ham shunga o'xshash holat.

Himoya qanday yaratiladi?

Qachonki, tarbiyani ota-ona — bog'chaga, bog'cha — maktabga, maktab esa mahallaga yuklamasdan, o'z zimmasidagi majburiyatni barcha birdek his qilsa, birdek amalga oshirsa, ana shundagina kuchli himoya yaratiladi. Uni o'zimiz yaratamiz. U hali "korrupsiya" ni bola aqli bilan tushunmaydi, illat ekani ni anglamaydi. Bunda unga boshlang'ich tushunchalarni soddada tilda anglatib borish mumkin.

Masalan, qalampirning achchiq ekani ni bildirib qo'yish uchun uning ta'mini totish shart emas. Aslida, bolaga qalampirning achchiqligini shakarning shirin ta'mi bilan ham anglatish mumkin.

Mana shunday taqqoslash tasvirlar orqali bolani dastavval halollikka o'rgatish zarur. Bunda bolaga fikrni tez va oson yetkazish uchun ta'lim-tarbiyaning o'ziga xos vositalarini qo'llash juda samarali. Aytaylik, yuvilgan olma va balchiqda yotgan olmani o'zaro taqqoslash bilan "nima yaxshi,

nima yomon", "nima mumkin, nima mumkin emas" ekani bildiriladi. Endi bolakay balchiqda yotgan olma vositasida faqat nopok bo'lmaslikni emas, balki doimo toza yurishni ham o'rganadi. Bu esa o'z-o'zidan keyingi tushuntirishlarga — ko'ngilni ham pok saqlashni o'rgatuvchi mashg'ulotlarga yo'l ochadi. "Yomonlikka qo'l urgan odam balchiqdagi olma kabi yuzi dog' bo'lib qolishi mumkin"ligi haqida bola tilida tushuntirishlar beriladi. Bunday soddada, va muhimi, o'ziga tanish so'z, ifodalardan keyin nima to'g'ri-yu, nima noto'g'ri — bola dastlabki ko'nikmalarga ega bo'ladi, halol-haromni ajrata boshlaydi va shu tariqa o'zi uchun korrupsiyaga qarshi himoya qobig'ini yaratadi. Bundan kelib chiqadiki, bola atrofidagi barcha o'qituvchi vazifasida birlashishi zarur.

Har kim o'qituvchiga aylanishi kerak

Avstriya davlati bu borada yaxshi tajribani taklif etadi. Bu yerda korrupsiyaga qarshi kurash sohasida uch haftalik malaka oshirish kursi mavjud. 14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun "Korrupsiyaga qarshi trening" loyihasi. Bunda o'quvchilarga korrupsiyaga qarshi qanday kurashish kerakligi, fuqarolarning va jaryandagi roli sahna ko'rinishlari orqali namoyish etiladi.

Trening davomida uyushtiriladigan turli o'yinlarda o'quvchidan faollik talab etiladi. Ular tomonidan dastavval karta tanlanadi va unga o'z roli tushuntiriladi. Asosiy mavzulardan biri sifatida "maktab-

dagi sovg'alar"ga o'xtab o'tiladi. Mashg'ulotlar so'ngida o'quvchilarga so'rovnoma tarqatiladi. So'rovnoma bevosita treningning nazariy qismida o'rganilgan ma'lumotlardan iborat. Ishitirokchilar korrupsiya holatini aniqlab olishi, uning sabab va oqibatlari, shu jumladan, huquqiy masalalarni tushuntirishi kerak bo'ladi. Maqsad — yuqori sinf o'quvchilarning fuqarolik javobgarligini oshirish, inson huquqlari va jamoat burchlarini tushuntirishdir.

Mazkur kurslarga o'qituvchi sifatida Avstriya Ichki ishlar va Adliya vazirligi, olimlar, psixologlar, iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish sohasidagi mutaxassislar jalb qilinadi.

Korrupsiyaga qarshi to'qqiz qadriyat

Bola bilan shug'ullanishda Indoneziya tajribasi eng samarali usullardan biri sifatida e'tirof etiladi. Davlatda korrupsiyaga qarshi dasturlar bog'chadan boshlab ta'limning barcha bosqichini qamrab oladi. Bog'cha va maktab yoshidagi bolalar "korrupsiyaga qarshi to'qqiz qadriyat" ruhida tarbiyalanadi. Bu qadriyatlar — halollik, mehnatsevarlik, jasorat, mas'uliyat, mustaqillik, adolat, intizom, kamtarlik va e'tibor. Yosh xususiyatidan kelib chiqib, bu qadriyatlar ularga ertak yoki rolli o'yinlar shaklida o'rgatiladi. Maktab o'quvchilari va talabalar uchun esa darslar an'anaviy tarzda ma'ruza, seminar, munozaralar shaklida kechadi.

Umuman, Indoneziyada korrupsiyaga qarshi kurash 2002-yilda tashkil etilgan korrupsiyaga qarshi kurash komissiyasi (Komisi Pemberantasan Korupsi) yordamida davlat darajasida amalga oshiriladi. Hozirgi vaqtda korrupsiyaga qarshi ta'lim

dasturlari Indoneziyaning 33 ta viloyatidan 11 tasida yo'lga qo'yilgan.

Yigirma to'qqiz ming insho

Bolada korrupsiyaga qarshi murosasiz kayfiyat uyg'otish, ularni bu illatga qarshi kurashuvchan ruhda tarbiyalash borasida bizda ham amaliy jarayonlar keng yo'lga qo'yilgan. Adliya vazirligi hamda boshqa bir qator davlat organlari va tashkilotlar hamkorligida an'anaviy tarzda o'tkazib kelinayotgan "Korrupsiya — taraqqiyot kushandasi" insholar tanlovi shular jumlasidan. O'tgan yil misolida olib qaradigan bo'lsak, tanlovda qariyb 29 ming yoshlar ishtirok etdi.

Yigirma to'qqiz ming insho — qonunga itoatkorlikni yuksak qadriyat deb biladigan yigirma to'qqiz ming o'g'il-qiz degani. Qarindosh-urug'chilik, poraxo'rlik, ko'zbo'yamachilikka qarshi yigirma to'qqiz ming yosh degani. Ertaga oldida ikki yo'ldan birini tanlash sharoiti yuzaga kelgan payti nopok yo'lga og'ishib ketmaydigan, o'z fikri va nuqtayi nazariga ega yigirma to'qqiz ming to'g'ri tanlov degani.

Umuman olganda, bola miyasi o'ziga hamma narsani yutib oladigan mashinaga o'xshaydi. Ayniqsa, bog'cha yoshida u hali ma'lumotni tanlab olish va tushunish holatida bo'lmaydi. Ma'lumotlarni qanday bo'lsa, shundayligicha qabul qilib, xotirasiga saqlab boradi. Ana shu jihatdan bolaga tarbiya berishda "unga tegma, buni qilma" degan buyruqlardan chekinib, ularda to'g'rilik, rostgo'ylik, halollik kabi ezgu fazilatlarini shakllantirishda yangicha metod, yangicha yo'ldan borgan maqsadga muvofiq. Korrupsiyaga qarshi kurash borasida ham.

Akmal JUMAMURODOV, Adliya vazirligi mas'ul xodimi

Bilimli o'qituvchining mavqeyi ham baland bo'ladi

Ayni paytda Samarqand shahrida 79 ta umumta'lim maktabi, 1 ta "Barkamol avlod" bolalar markazi faoliyat ko'rsatmoqda. Hozirgi kunda umumta'lim maktablarida jami 5 119 nafar pedagog xodim 93 536 nafar o'quvchiga ta'lim-tarbiya beradi. Shaharda yangi maktablar qurilib, foydalanishga topshirilishi bilan ularning moddiy-texnik bazasi tobora yaxshilanib, o'quv-laboratoriya jihozlari, kompyuter texnikalari, o'quv darsliklari va metodik qo'llanmalar bilan to'liq ta'minlanmoqda.

"Yilning eng yaxshi o'qituvchisi" Respublika ko'rik-tanlovining shahar bosqichida 13 ta fan bo'yicha 1 409 nafar o'qituvchi qatnashdi. Viloyat bosqichida 9 fandan o'tkazilgan tanlovning 2 ta fan yo'nalishi bo'yicha 37-IDUM ingliz tili fani o'qituvchisi Nargiza Negmatova va 20-umumta'lim maktabi geografiya fani o'qituvchisi Shahlo Salomova 1-o'rinni egallashdi, 20-maktabning geografiya fani o'qituvchisi Shahlo Salomova tanlovning Respublika bosqichida ham 1-o'rinni egalladi.

Prezidentimizning 2018-yil 14-avgustdagi "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ular-

ga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi qarori ijrosi yuzasidan shahar xalq ta'limi bo'limi tasarrufidagi umumiy o'rta ta'lim maktablariga 145 psixolog shtat birliklari ajratilgan bo'lib, bu shtat birliklarida 149 nafar amaliyotchi psixolog faoliyat yuritmoqda. Shundan 60 nafari mutaxassis amaliyotchi psixolog, 89 nafari nomutaxassis amaliyotchi psixologlardir. Umumiy o'rta ta'lim maktablari amaliyotchi psixologlari faoliyatini jonlantirish va psixologik xizmat samaradorligini oshirish maqsadida ham bir qator ishlar amalga oshirilgan.

Jamiyatimizning hamma

sohalar kesimida shiddat bilan taraqqiy etishi bevosita insoniyat tafakkurining o'sishi, faoliyatining serqirraligi va jadallashuviga bog'liq. Zamon talablari bilan hamqadam bo'lib, soha rivojiga o'z vaqtida hissa qo'sha oladigan, yangidan yangi g'oyalarni amaliyotga joriy eta oladigan kadrlarga kundan kun ehtiyoj ortmoqda. Jumladan, har oyda yil boshida ishlab chiqilgan reja asosida har bir fan kesimida buyurtma asosida o'qituvchilarning malaka oshirishi ushbu ishlarni amalga oshirishda muhim sanaladi. Ta'lim muassasalarini oliy ma'lumotli pedagog kadrlar bilan ta'minlash maqsadida pedagogik yo'nalishdagi Samarqand davlat universiteti, Samarqand davlat chet tillar instituti, O'zbekiston Milliy universiteti, Jizzax davlat pedagogika instituti, Navoiy davlat pedagogika instituti, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Toshkent davlat pedagogika universiteti bilan hamkorlik dasturi tuzilgan. Bundan tashqari har yili oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini bo'sh ish o'rinlariga ishga taklif etish bo'yicha joy-

larda uchrashuvlar o'tkazilib, bitiruvchilar bilan ishga qabul qilish bo'yicha uch tomonlama shartnomalar imzolani b kelinmoqda. Mavjud ehtiyoj o'qituvchilarning dars soatini oshirish, o'rindoshlik, pensioner o'qituvchilarni va yuqori kurs talabalarini jalb qilish hisobiga qoplanmoqda. Samarqand shahrida o'qituvchi yetishmasligi muammosi faqatgina ta'lim rus tilida olib boriladigan maktablarda mavjud.

Ta'kidlash joizki, bugun nafaqat sohasidan uzilib qolgan pedagoglar, balki xalq ta'limi sohasiga ishga qabul qilinayotgan har bir o'qituvchi bilim darajasi, malaka va tajribasi asosida suhbatdan o'tkazilyapti. Shu bilan birgalikda, maktablarda ustoz-shogirdlik asosida har bir fan o'qituvchisi malaka oshirish kurslarida o'qishidan tashqari, tayanch maktablarda tajribali fan o'qituvchilaridan kasb mahoratlarini o'zlashtirmoqda. Ushbu sa'y-harakatlar sohada faoliyat ko'rsatib, muammoga duch kelayotgan o'qituvchining kasbiy mahorati yuqorilab borishiga xizmat qiladi.

Endilikda o'qituvchining o'z ustida ishlashi, bor kuch-g'ayratini, shijoatini ta'lim-tarbiya samaradorligiga bag'ishlaydigan davr keldi. Sir emaski, joylarda bunday ulug'vor maqsadlarga hali ham ko'nikolmagan ba'zi rahbarlar borki, aynan o'qituvchi mehnatiga ko'z tikib, ayrim sa'y-harakatlarni amalga oshirishga intilmoqda. Biz bunday holatlarning oldini olish maqsadida jamoatchilik bilan hamkorlikda qator ishlarni olib boryapmiz.

Pedagog o'quvchiga zamonaviy bilim berishi uchun, avvalambor, uning o'zi bugungi islohotlardan xabardor, jamiyatda ro'y berayotgan voqea-hodisalarga daxldor bo'lishi lozim. U o'z ustida doimiy ravishda ishlashi, o'quvchiga salmoqli ta'lim-tarbiya beradigan, ularni fanga qiziqitira oladigan noan'anaviy uslublardan foydalanishi lozim. Buning uchun u nafaqat mutaxassisligiga oid puxta ilm, balki ijtimoiy-siyosiy bilimlarga ham ega bo'lishi lozim.

Nigora SA'DINOVA,
Samarqand shahar xalq ta'limi bo'limi mudiri

O'qituvchi minbari

Salohiyatsiz kadrlar kimning "mahsul"i?

Maktab ta'limida ko'plab o'qituvchilar uchratadigan bir muammo borki, uni bartaraf etish uchun, avvalo, ota-onani yo'lga solishga to'g'ri keladi.

Iqtidorli o'quvchining o'z qiziqishi bilan maqsadi sari intilishi ota-onasi hamda ustozlari ko'magi va qo'llab-quvvatlashiga bog'liq. Maktab o'qishga umuman qiziqishi yo'q o'quvchini ham kasbga yo'naltirishi, iqtidorini namoyon etishga imkoniyat va sharoit yaratishi lozim. Bunday o'quvchilar bilan psixolog, o'qituvchi va ota-ona hamkorlikda ishlashi kerak. Ammo ba'zi ota-onalar uchun farzandlarining fikri, qiziqishlari muhim emas. Meni bir savol ko'p o'ylantiradi. O'quvchining kelajagi kim uchun kerak? Davlat uchunmi yo ota-ona uchun? Davlatga yurt farovonligi, iqtisodiy taraqqiyot, ijtimoiy nufuzini oshirish uchun salohiyatli kadrlar kerak. Shu maqsadda o'quvchilarning ta'lim olishi uchun ko'plab imkoniyatlarni o'z ichiga olgan bepul tizimni yaratib qo'yibdi. Ota-ona-chi? Ular, avvalo, fuqaro sifatida davlat oldidagi burchini his etib, farzandini el koriga yaraydigan sog'lom fikrli inson qilib tarbiyalashga mas'ul.

Yigirma yildan ortiq pedagogik faoliyatimdan kelib chiqib aytishim mumkinki, o'quvchi ilm olish va o'z kelajagiga beparvo bo'lar ekan, bunga ota-ona sababchi bo'ladi. Vaqtida bolalarga sharoit yaratib bermaslik, tergap turmaslik, hammasini o'qituvchi zimmasiga tashlab qo'yish kabi ota-ona tomonidan yo'l qo'yiladigan befarqliklar o'quvchilarning ham o'ziga bo'lgan mas'uliyatini so'ndirib boradi.

Bolaning kelajagini ta'minlashda yapon va ko-reys millatidan o'nak olsa arziydi. Bizning ham bu borada qarashlarimizni o'zgartiradigan payt

keldi. O'quvchilardagi (ayrim ota-onalarda ham) "maktabni bitirib olay u yog'i bir gap bo'lar" yoki birdaniga boyib ketish xomxayollarini o'zgartirishimiz kerak. Bu borada ota-ona bilan birga ustozlarining ham o'rni katta. Sohaga "adashib kirib qolgan" pedagoglar xatosini takrorlamalik uchun, avvalo, ularning qobiliyatini sinovdan o'tkazib, munosibini oliy ta'limda o'qitish kerak. Shu o'rinda yuqorida aytilgan muammolarning yechimi sifatida ayrim takliflar bermoqchiman:

- har bir tumanda qobiliyatli o'quvchilar bilan ishlaydigan internat-maktablar tashkil qilish lozim;
- kasb-hunar maktabiga qamrab olish imkoni bo'lmagan joylarda jamoatchi ustozlarni birlashtirish (manfaatli bo'lsa samarali bo'ladi). Bunda to'garak sifatida turli soha vakillari (haqiqiy mutaxassislar) master-klass o'tishlari yoki reja asosida suhbatlar tashkil qilishlari kerak;
- ota-ona mas'ulligini oshirish (yaxshi o'qimasa yoki tarbiyasida pasayish sezilsa, javobgarligini kuchaytirish);
- puxta ishlangan ijtimoiy-psixologik so'rov o'tkazish lozim.

Xulosa qilib aytganda, bugun umumiy o'rta ta'limda yechimini kutayotgan muammolar ko'p. Yechim topish esa yana ko'p mehnat talab etadi. Sharaffi mehnatdan charchamaylik.

Bozor XO'JAMQULOVA,
Qamashi tumanidagi
80-maktabning ona tili va
adabiyot fani o'qituvchisi

Tajriba

O'quvchilarning dars mavzusini tushuntirishda turli o'yin va metodlardan foydalanaman. Jumladan, "Zakovat" o'yinidan mashg'ulot yakunida tahlil uchun foydalaniladi. Bu o'yinda sinf o'quvchilari olti guruhga bo'linadi va oldindan tayyorlab qo'yilgan topshiriqli konvertlarni (yoki kartochkalarni) guruh a'zolari navbat bilan olishadi.

"Zakovat" dan zehn oshadi



Shundan keyin guruhlar 10 daqiqa davomida o'zlariga tushgan topshiriqlarni bajarishadi hamda guruh javoblarini e'lon qilish uchun bir o'quvchini tanlashadi yoki guruh sardori javob beradi. Har bir guruhga bir nechta savoldan iborat topshiriq beriladi. O'qituvchi har bir to'g'ri javob uchun ball qo'yadi. Agar biror savol-topshiriqqa noto'g'ri javob bo'lsa, boshqa guruhlar to'g'ri javobni aytishlari mumkin, bu holda, javob bergan guruhga ball qo'yiladi. Shu tariqa guruhlar o'ziga berilgan topshiriq bo'yicha taqdimot o'tkazadi, boshqa guruhlar esa ularni to'ldirishi va

noto'g'ri javoblarini to'g'rilab ball olishlari mumkin. Natijada bir soatlik darsda katta bir bo'lim, bob bo'yicha o'tilgan o'quv materialini takrorlab, o'rgangan bilimlarni mustahkamlab olish va hamma o'quvchilarni mashg'ulotga jalb qilib, ularning darsda faol bo'lishlariga erishish mumkin. O'quvchi soni o'z bo'lgan sinflarda esa guruhlariga bo'lmasdan, balki sinfdagi uch qator o'rtasida musobaqa tarzida ham o'tkazish mumkin. Bu holda qatorlarga ikki martadan topshiriqli kartochka berish mumkin. Masalan, 6 ta kartochka tayyorlanadi va har bir qatorga navbat bilan ikki martadan beriladi. Ushbu mashg'ulotni boshqa fanlarga ham moslashtirib o'tkazsa bo'ladi.

Zubayra ARINOVA,
Sirg'ali tumanidagi
300-maktab o'qituvchisi

O'zbek tili darsliklari takomillashtirilishi kerak!



(Davomi. Boshi 1-betda.)

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 5-apreldagi "Umumta'lim maktablari uchun muqobil darsliklarni yaratish va ulardan foydalanish tizimiga bosqichma-bosqich o'tish mexanizmini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun yaratilayotgan darsliklar va o'quv-metodik majmualarning sifatini oshirish, o'quvchilarni darsliklar bilan to'liq ta'minlash, sifatli darsliklarni tanlash imkoniyatlarini kengaytirish, raqobatbardosh, muqobil darsliklarni yaratish va ulardan foydalanish tizimiga bosqichma-bosqich o'tish mexanizmini joriy etish, muqobil darsliklarni tayanch maktablarda 2020/2021-o'quv yilidan boshlab tajriba-sinovdan o'tkazish kabi vazifalar ko'zda tutilgan.

O'zbek tili rusiyzabon guruhlarda ikkinchi til sifatida o'qitilgan ekan, ikkinchi tilni tarjimasiz o'rganib bo'lmaligi ma'lum. O'qituvchi grammatik mavzuni harchand tushuntirmasin, o'zga tili bola axborotlarni to'liq qabul qila olmaydi. Tushunmagan mavzuni o'rganishni istamaydi, o'rganolmaydi ham. Natijada shu fanga qiziqishi susayadi.

Shaxsiy tajribamga tayanib aytamanki, 9-10 yil rus sinfida o'qigan o'quvchilar ham grammatik mavzularni qiyoslab o'rgatilgandagina o'zlashira oladi. Chunki o'quvchilarda ta'lim olayotgan tilida egallagan bilimlari bo'yicha ko'nikma va malakalar shakllangan bo'ladi. Darsda berilgan qiyosiy ma'lumotlarni bola unutishi mumkin. Aynan, shunda darslik o'z vazifasini uyda o'tashi kerak. Boshlang'ich sinflarda aksariyat o'quvchilar uy vazifalarini bajarishda ota-ona ko'magiga tayanadilar. Ota-onalarning aksariyati uy vazifasi uchun berilgan topshiriqlarning shartini, qoidalarni farzandlari, hatto, o'zlari ham tushunmayotganliklarini bildiradilar. Ularning bu e'tirozlariga biz qanday javob beraylik? Demak, darsliklarda grammatik mavzularning o'zbek va rus tillarida qiyosiy berilmaganligi o'zbek tili ta'limining samaradorligiga to'sqinlik qilayotgan ilk sabablardan biridir.

O'zbek tili ta'limida nutqiy mavzuga

asosiy mavzu sifatida qaraladi. Grammatik tushunchalar esa uzviy emas, nutqiy qurilmalardagi fikri ifodalash vositasi bo'lib, asosiy maqsadning amalga oshishiga xizmat qiladi. Ammo bu yondashuv bugungi kunda o'zini oqlamayapti. Negaki, amaldagi darsliklarga deyarli tilshunoslikning barcha bo'limiga oid mavzular kiritilgan. Endilikda grammatik mavzular nutqiy mavzularga bo'yusinishi tarzidagi qolipdan voz kechishimiz vaqti keldi. Natijaga erishishning ikkinchi yo'li bu grammatik mavzularning izchilligini ta'minlashdir. Bir-biriga bog'lab bo'lmaydigan tarqoq mavzular bilan o'quvchilarning yozma savodxonligida natijaga erishish mushkul.

Modomiki, 2020/2021-o'quv yilidan boshlab darsliklarning yangilanishi tilga tajriba-sinov olib borilgan ekan, yangi avlod darsliklari bo'yicha yurtimizdagi hamkasblarimiz fikr va mulohazalariga yuzlansak:

Saida YOMG'IROVA, Qarshi shahar xalq ta'limi bo'limi ona tili va adabiyot fani metodisti:

— Ta'lim rus tilida olib boriladigan aksariyat maktablarda mutaxassis kadrlar yetishmaydi. O'z fanini yaxshi bilgan ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi mavzuni qoyillatib tushuntirishi mumkin, lekin fanga ikkinchi til talabi sifatida yondashmaganligi yaqqol ko'rinib turadi. Darslikda mavjud bo'lmagan qiyosiy ma'lumotlarni ulardan ham talab etib bo'lmaydi. Fan bo'yicha yuzaga kelayotgan bo'shliqning asosiy sababi ham shunda.

Ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablar uchun darsliklarni mukammal darajada yaratish uchun mualliflar va tajribali tarjimonlar, salohiyatli mutaxassislar hamkorlikda faoliyat olib borishlari kerak. Muqobil darsliklarni yaratishda har bir soha egasi o'zining funksional vazifasini bajarsa, o'ylaymanki, bu masala o'z yechimini topadi.

O'zbek tili fani o'qituvchilari darsliklarning o'quv dasturiga mos kelmayotganini ko'p ta'kidlaydilar. Bu masalaga jiddiy e'tibor qaratish lozim. Chunki darslikda mavjud bo'lmagan she'r yoki

matnini izlab topish, o'quvchilarga yetkazish o'qituvchiga qiyinchilik tug'dirishi tabiiy. O'qituvchi maktabdagi ishi va ro'zg'or yumushlaridan ortib, kasbiy bilim va kompetentligini oshirish, ijodiy faoliyatini rivojlantirish uchun ham vaqt sarflashini inobatga olish kerak.

Dilnoza NORMURODOVA, Angren shahridagi 17-maktabning o'zbek tili fani o'qituvchisi:

— Joriy o'quv yilida yangilangan tayanch o'quv reja asosida taqvim-mavzu reja berilmadi. Biz fan o'qituvchilari o'zaro kengashib, vaziyatdan chiqdik. Vaholanki, har bir maktab o'qituvchisi o'zi tuzgan reja ko'ra emas, respublika bo'yicha yagona ish reja asosida faoliyat yuritilishi kerak. Shuningdek, dars soatlaridagi o'zgarish darsliklarda ham aks etishi lozim. Kelgusida chop etiladigan darsliklarda adabiyotimizning yetuk namoyandalari ijodi haqida ma'lumot va durdona asarlari kiritilishini taklif etaman.

Vahobjon AKBAROV, So'x tumanidagi 21-maktabning o'zbek tili fani o'qituvchisi:

— Ta'lim tojik tilida olib boriladigan maktabda o'zbek tili fanidan dars beraman. Amaldagi darsliklar o'quvchi va o'qituvchilar uchun biroq qiyinchilik tug'diryapti. Chunki ta'lim qardosh tillarda olib boriladigan maktablarda ta'lim rus sinflarda olib boriladigan maktablar uchun mo'ljallangan o'zbek tili darsliklaridan foydalanilyapti. Lug'atda yangi so'zlarning tarjimasini o'zbekcha-ruscha berilishi ham ularni uchinchi tilga chalg'itadi. Kelgusida yangi darsliklarni yaratish rejalashtirilayotgan ekan, tojik maktablari uchun ham o'zbek tili darslari ta'lim tiliga muvofiqlashtirishiga ehtiyoj borligi hisobga olinishini xohlardim.

Dilso'z NUROVA, Qarshi shahridagi 11-maktabning o'zbek tili fani o'qituvchisi:

— Ta'lim rus sinflarida olib boriladigan maktab o'quvchilari o'zbek alifbosidagi O'o', Hh, G'g', Qq harflarning talaffuzi va imlosini puxta o'rganishga qiynaladilar. Ammo bu mavzularga ajratilgan soatlar yetarli emas.

Faoliyatim davomida quyi sinflarda dastlabki nutqiy mavzular bilan bog'lanshiki "Unli va undosh harflar", "Jarangli tovushlar", "Jarangsiz tovushlar", "Bo'g'in ko'chirish qoidalari", "Tinish belgilari"ga doir tushunchalarning o'rgatilishiga ehtiyoj yuqori ekanini sezaman.

Dars jarayonlarida shunday holatlar ham uchraydiki, rusiyzabon o'quvchilar so'roq belgisi, qo'shtirnoq, undov nimaligini rus tilidagi tarjimasini bilan qo'llaganda yodga oladilar. Chunki o'zbek tili darsliklarida bu mavzuga aloqador muayyan tushunchalar uchramaydi. Ushbu mavzuga oid ma'lumotlar darslikda mavjud bo'lmaganligi o'qituvchining ham diqqatini tortmaydi. O'qituvchi o'sha vaziyatda tushuncha bersa ham, bola bu ma'lumotni tezda

unutadi. O'zbek tili darsligida tinish belgilarining qo'llanishi haqida tushunchalarning berib borilishi o'quvchilarning ikkala tilda ham savodxonlik darajasini oshirishga xizmat qilardi.

Rustamjon ZOKIROV, So'x tumanidagi 24-maktabning o'zbek tili fani o'qituvchisi:

— Ma'lumki, o'zbek va rus tillarida gap bo'laklarining og'zaki va yozma nutqda qo'llanishida anchagina farq bor. Bolalar esa ona tilida hosil bo'lgan ko'nikmalar asosida fikrlaydi va so'zlashadilar. Aksariyat topshiriqlar gap tuzish, gapni davom ettirish kabi shartlardan iborat. O'quvchilar fikrini sodda gaplar bilan ifoda eta olishi uchun dastlab gapning grammatik asosi (ega va kesim) haqidagi bilimlarga ega bo'lishi shart. 9-sinfgacha bo'lgan darsliklarga bu mavzular kiritilmagan.

Nargiza TOHIROVA, Sirg'ali tumanidagi 3-maktabning o'zbek tili fani o'qituvchisi:

— 5-7-sinf darsliklarida mashq va topshiriqlar keragidan ortiq berilgan. Dars davomida hammasini bajarishga vaqt yetmaydi. Shuningdek, o'xshash topshiriqlar o'quvchini zeriktiradi. Shuning uchun darsning mustahkamlash bosqichida o'rganilgan yangi mavzu bo'yicha turli ta'limiy o'yinlarning berilishi o'quvchilarni faollashtiradi. O'yin texnologiyalariga asoslangan topshiriqlarning darslikda berilishi o'quvchiga qulaylik yaratadi.

Gulbahor SULTONOVA, Jalaquduq tumanidagi 49-maktabning o'zbek tili fani o'qituvchisi:

— Bilimlar takrorlash bilan singdiriladi. Shu bois har bir sinf ish rejasida "Takrorlash", "Mustahkamlash" darslari uchun 2 soatgacha ajratilgan. Ammo amaldagi o'zbek tili darsliklarida "Takrorlash" mavzulari mavjud emas. Takrorlash darslari chorak davomida o'rganilgan mavzular yuzasidan egallangan bilimlar, shakllangan ko'nikma va kompetensiyalarni aniqlash, mustahkamlash, bo'shliqlarni to'ldirish uchun nihoyatda zarur.

"Umumta'lim maktablari uchun muqobil darsliklarni yaratish va ulardan foydalanish to'g'risida Nizom"ning 1-bobida Xalq ta'limi vazirligi tomonidan bitta o'quv fanidan o'quvchilarga tavsiya etilgan asosiy darsliklar bilan bir qatorda alohida yoki qo'shimcha ravishda foydalanish mumkin bo'lgan darsliklar hamda o'quv-metodik qo'llanmalar yaratilishining belgilanishi zamirida yuksak maqsadlar yotadi. Ushbu imtiyozdan foydalanib, istiqboldagi o'zbek tili darsliklariga o'quvchilarning yoshi va psixofizikologik xususiyatlariga moslashtirib, qo'shimcha "O'zbek tili fanidan o'qish kitobi" yaratilishini taklif etaman.

Shohsanam ODAYEVA,
Qarshi shahridagi
11-maktabning o'zbek tili fani
o'qituvchisi

Sinab ko'ring

Blum taksonomiyasi (Bloom's taxonomy)

O'quvchilarga ingliz tilini o'rgatishda dars rejasi ham oddiy, ham samarali har bir o'qituvchining asosiy maqsadidir. Dars rejasi tuzishda ta'limda yetakchi davlatlarda chiqqan qo'llanmalardan foydalanishga harakat qilaman. So'nggi yillarda malaka oshirish kurslarida ta'lim olgan bo'lsangiz, ingliz tilini o'qitish metodikalari orasida tez-tez Blum taksonomiyasi (Bloom's Taxonomy) atamasiga duch kelgan bo'lsangiz kerak. O'zim birinchi marta ushbu atamani Shotlandiyaning Kaledoniya universitetida malaka oshirayotgan paytim eshitgandim. Hozir bu mening dars tashkil etishdagi asosiy yordamchim bo'lib qolgan.

Blum taksonomiyasi



Yaratish
Baho berish
Tahlil qilish

Yuqori fikrlash qobiliyatlari

Qo'llash
Tushunish
Eslab qolish

Quyi fikrlash qobiliyatlari

Taksonomiya — narsalarni tashkil-lashtirish va ularni turli jihatlariga ko'ra sinflarga ajratish tizimidir. Blum taksonomiyasi — bilish va o'rganishning piramida shaklidagi bosqichlari. Piramidaning har bir pog'onasi pastdan tepaga, quyi fikrlash qobiliyatlaridan yuqori fikrlash qobiliyatlariga, aniq tushunchadan majhul-g'oyaviy bilimga qarab o'sib boradi.

Ushbu taksonomiyaning asoschisi Benjamin Blum, amerikalik ta'lim psixologi, 1940-yillarda ta'lim sifatini oshirish haqidagi g'oyalari va ushbu tizimi bilan ta'limga katta hissa qo'shgan. Hozirgi kunda Blum taksonomiyasi ko'pgina rivojlangan davlatlar ta'lim tizimida o'qituvchilarning darsni samarali tashkil etishida asosiy vositaga aylangan.

An'anaviy darslar odatda ko'proq

quyi fikrlash qobiliyatlarini o'stirishga e'tiborni qaratadi: biz mavzuni tushuntiramiz, ma'lumot beramiz, aqliy hujum savollarini beramiz, o'quvchilar javob beradi, darsni mustahkamlash uchun misol-mashqlar yechadi, shu asosida baholanadi. Bunday darslar o'quvchilarning yuqori fikrlash qobiliyatini rivojlantirishgacha yetib bormay qoladi, vaholanki, o'quvchilarning yuqori fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish ularni kelajak hayotga ko'proq tayyorlaydi. Kundalik hayotda zarur bo'ladigan fikrlash ko'nikmalari, ziddiyatli vaziyatlarda muammolarni yechish, tanqidiy fikrlash, tahlil qilish kabi qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Blum taksonomiyasiga ko'ra bilim egallash quyi aqliy qobiliyatlar, ya'ni eslab qolish, tushunish, qo'llashdan boshlanib, yuqori fikrlash qobiliyatlari, tahlil qilish, baholash, yaratishga qarab ko'tarilib boradi.

Benjamin Blum 6 pog'onaning har birini quyidagi fe'llar orqali ifodalab bergan:

1-pog'ona. **Eslab qolishni** dars jara-yonida ushbu harakatlar bilan amalga oshirish mumkin: takrorlash, tasvirlash, chizish, yopishtirish, aniqlash, nomlash, sanash, aytish, yozish.

2-pog'ona. **Tushunishni** qo'shish, solishtirish, tushuntirish, kuzatish, taxmin qilish, tarjima qilish, umumlashtirish kabi ko'nikmalar orqali amalga oshirish mumkin.

3-pog'ona. **Qo'llash** uchun o'quvchilar hisoblash, moslashish, o'zlashtirish, yasash, ifodalash, namoyish qilish, ko'rsatish, yechish, foydalanishlari mumkin.

4-pog'ona. **Tahlil qilish** uchun toifalash, anglab yetish, o'rganish, tatbiq qilish, qiyoslash, sinflash, tartibga solish, ustunlikni aniqlash.

5-pog'ona. **Baho berishda** tanqid qilish, himoya qilish, tushuntirish, sinflash, tabaqalash, oqlash, isbotlash.

6-pog'ona. **Yaratish** — jamlash, qurish, rivojlantirish, ishga tushirish, qo'shish, birlashtirish, loyihalashtirish, tasvirlash kabi ko'nikmalar orqali o'rganiladi.

Ushbu taksonomiyaning asosiy mohiyati shundaki, bunda o'qituvchi mavzuni tushuntirishda oson topshiriqdan boshlab, o'quvchilarni fikrlashga chorlovchi, tanqidiy-tahliliy, fikrlashni rivojlantiruvchi murakkab topshiriqlarga olib chiqadi.

Masalan, men undan quyidagicha foydalanaman. Dars mavzusi 2-sinfidagi "Family" (Oila) bo'lsa, dastur bo'yicha yangi so'zlarni eslab qolishlari uchun avval oila a'zolarining rasmini ko'rsatib takrorlaymiz, nomlaymiz (Father, mother, sister, brother, baby). Tushunishlari uchun rasimga qarab o'quvchilardan tarjimasini so'rayman, ular taxmin qiladi, tarjima qiladi (ota, ona, opa, uka, go'dak). So'ng qo'llash uchun oila a'zolari haqida qisqa gaplar tuzadi (I have a father kabi). Keyingi pog'onada bilim olish shu tartibda o'sib boraveradi. Tahlil qilishlari uchun u (he, she) so'zini

qo'shib, oila a'zolariga nisbatan qo'llaymiz. Uyg'a vazifa qilib esa oila a'zolarining rasmlari "he"lar(father, brother) ni bir rang, "she"lar(mother, sister) ni boshqa rangga bo'yab kelishni topshirish mumkin.

Yuqori sinflarda barcha 6 bosqichni bir darsga jamlash yaxshi samara beradi. Masalan, 9-sinflarda "Educational system" (Ta'lim tizimi) mavzusida eslab qolish, tushunish, qo'llash, tahlil qilish, baho berish sinf topshirig'i sifatida, yaratish uy vazifa sifatida berilishi mumkin. O'quvchilar darslikda berilgan matnni o'qish, yangi so'zlarni eslab qolish, ularni mashq yordamida qo'llab ko'rish, savollarga javob berish jarayonida tahlil qilishlari mumkin. Dars yakunida o'qituvchi darsdagi o'rganilgan va avvalgi bilimlariga tayangan holda tanqidiy fikrlashga chorlovchi savollar, mulohazalar tashlashi kerak. "Qanday qilib? Nima uchun? Qaysi tomonlari afzal? Qaysi tomonlari noto'g'ri? Siz qanday yo'l tutar edingiz? Siz qanday bo'lishini xohlar edingiz? Siz qanday savol berar edingiz? Agar ...bo'lsa, nima bo'lar edi? Qanday maqsad ko'zlangan?" kabi savollar bilan darsga yakun yasash mumkin. Uyg'a vazifa sifatida kichik guruhlarda O'zbekiston va boshqa davlatlar ta'lim tizimi haqida 3 daqiqalik o'quvchilarning o'z nutqlari bilan video, taqdimot yoki ko'rgazma tayyorlab kelishlarini berish mumkin.

Ushbu metodning samarasini o'z darslarimda ko'ryapman, sekin o'zlashtiruvchi o'quvchilar ham uyg'a berilgan ijodiy ishga erkin, mustaqil yondashyapti. Blum taksonomiyasini nafaqat ingliz tilini o'qitishda, balki barcha fanlarda ham qo'llash yaxshi samara beradi.

Sevara OTABOYEVA,
Xalq ta'limi vazirligi tasarrufidagi tabiiy fanlarga ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabining ingliz tili o'qituvchisi

Taklif

"Kitobday aziz bo'ling", deylik!

Kitobxonlikni targ'ib etish bo'yicha quyidagilarni taklif qilmoqchiman:

- Minnatdorchilik bildirayotganda oddiygina "Rahmat" yoki "Tashakkur" so'zlariga qo'shimcha tilak sifatida "Kitobday aziz bo'ling" degan tilak bildirish.

- Tug'ilgan kun yoki bayramlarda eng yaxshi sovg'a, xoh katta bo'lsin, xoh kichik, kitob deb bilish.

- Kim bilandir so'rashganda, "Qanday kitob o'qiyapsiz?" degan savolni berib, fikr almashish

an'anasini milliy urf-odatga aylantirish.

- Tadbirlar so'ngida "Men o'qigan kitob", "Siz ham o'qing" sahifasi joriy etilsa.

- Boshlang'ich sinf o'quvchilari orasida "Eng ko'p er-tak o'qigan o'quvchi" tanlovi tashkil etilib, g'olib o'quvchilar muntazam rag'batlantirib borilsa, samarali natija beradi.

- Kitob taqdimotlarida to-moshabin o'quvchilarning ham turli usullar yordamida, masalan, viktorina savollarini taqdim etgan holda qiziqishi-

ni oshirib, ularning e'tiborini taqdim etilayotgan kitobga qaratish mumkin.

- Ota-onalar bilan fikr almashgan holda "Kitob mutolaasiga qancha vaqt sarflaysiz?" mazmunidagi anketalar to'ldirish, bo'sh vaqtni to'lig'icha kitob mutolaasiga bag'ishlash bo'yicha targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish.

- Kitob haqidagi animatsion filmlarni tez-tez namoyish etish.

- Bolalarni kitob shaklidagi predmetlarni yasashga

o'rgatish: masalan archa o'yinchoqlari kabi.

- Har bir bola uchun bog'cha yoshidan boshlab shaxsiy kitoblar javonini tashkil qilish.

- Sadriddin Ayniyaning "Eski maktab", Oybekning "Bolalik" qissalaridagi eski maktab hayoti lavhalarini sahnalashtirish orqali hozirgi tinch, dorilomon kunlarining qadriga yetishga o'rgatish.

- Yoshlar e'tiborini sariq matbuotdan ko'ra ta'limiy-ma'rifiy nashrlarga qaratish.

- Boshqa davlatlardagi kitobxonlik ko'lamini haqida o'quvchilarga ma'lumot berib, ularni qiyosiy fikrlashga o'rgatish.

- "Olamni kitobsiz tasavvur qilib bo'lmaydi", "Kitob-siz dunyo — zulmat", "Jaholat qutqusi" kabi mavzularda yozma ishlar o'tkazish.

- Onalar, bo'lajak qaynonalar qizlarga, kelinlarining sepiga kitoblar yig'ishi.

- O'quvchilarga kitobni "ruhshunos" sifatida tanishtirish. Inson siqilganda ruhiy ko'makni kitobdan olishga o'rgatish.

Firdavs KOMILOV,
Toyloq tuman XTB ona tili va adabiyot fanlari metodisti

Mutaxassis minbari

Informatsion epidemiya pandemiyadan kuchliroq



Birgina o'lim ham fojia. Million nafar insonning o'limi esa bu statistika hisoblanadi. Har bir bevaqt o'lim bu insoniyat fojiasidir. Ammo hozir koronavirus profilaktikasi bir chetda qolib, aholi o'rtasida kasallikning rost yoki yolg'on salbiy oqibatlarini haqidagi vahimalar oldingi o'ringa chiqmoqda.

Vahima shu darajaga yetdiki, Avstraliya va Yaponiyadagi aholi hojatxona qog'ozini g'amlay boshladi, Fransiya-liklar Alber Kamyuning "Vabo" romanini qayta-qayta o'qishga mukkasidan ketdi, Ukrainaning Nash.live mediaplatformasi koronavirus tufayli ommaviy telbalikning har xil vaziyatlarini jamlab e'lon qilishga ham ulgurdi. Unga ko'ra, kim va nima uchun 600 o'ram hojatxona qog'ozini o'g'irlagani, Xitoyda nima uchun epidemiya yuzasidan "afsona"lar tarqatishga nisbatan qonuniy cheklolvar qo'yilganligi hamda ijtimoiy tarmoqlardagi koronavirus profilaktikasiga doir ommaviy chellenjlar (qo'lni yuvish, uyda qolish, tibbiyot niqobidan foydalanish, dezinfeksiya va h.k.) shular sirasiga kiradi.

Bunday ommaviy vahimalarning yuzaga kelishida ommaviy axborot vositalari, ayniqsa, internet tarmog'i yaxshigina "hissa" qo'shadi. Koronavirus haqida ma'lumotlar tarqalishi bilan yangiliklarda katta-katta gipermarketlardagi bo'sh javon va vitrinalar, kassa atrofidagi ikki-uch aravchalarda mahsulotlarni to'ldirib olgan xaridorlarning turnaqator navbat kutib turganliklari haqidagi fotolavhalar ko'paya boshladi. Bu xabarlar odamlar ongiga singdirilishi natijasida insonlar orasida bir-biridan qo'rqish, nafrat his-tuyg'ulari, parokandalik, millatchilik namoyon bo'la boshladi.

"Vahima" tushunchasi doirasida aynan ommaviy vahimali holat ma'nosi tushuniladi. Ushbu tushuncha ko'pgina tillarda indentiv holatda tushunilib, cho'ponlar, yaylovlar va podalar homiysi yunon xudosi Pan nomidan kelib chiqqanligi aytiladi. Tarixiy davrlarda "vahima" deganda uning qahri tushunilgan, ya'ni bunda hech qanday sababsiz o'zini jarlikka, olovga yoki suvga otayotgan podaning telbanamo harakatlari sodir bo'ladi. Qo'qqisdan boshlangan bu telbalik qo'rqinchli ravishda tezda tarqalib, o'z domiga barcha hayvonlar to'dasini tortgan holda ularni halokatiga olib kelgan. O'z jonini saqlab qolishga harakat qilayotgan olomon sarosimada shunday holatni namoyon etadi. Ko'pgina vahimali holatlar olomondan tashqari ham bo'lishi mumkin, masalan, narx-navoning oshishi, qaysidir bir mahsulotning taqchil bo'lishi, ma'lum bir davlat valyutasi konvertatsiyasining sezilarli tafovutlari va h.k. Ba'zan bunday holatlar oldinda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlardan qutulishga qaratilgan vasvasali xatti-harakatlarga xos ommaviy qo'zg'atish sifatida kuzatiladigan vahimali shov-shuv bilan ham ifodalangani.

Vahimani yuzaga keltirish shart-sharoitlariga quyidagilar kiradi:

Vaziyatga xos shart-sharoitlar. Ommaviy vahimali kayfiyatlar va xatti-harakatlar yuzaga kelishi ehtimoli kundalik turmush-

dagi vaziyatlar keskinlashgan davrda kuchayadi. Insonlar qandaydir voqea-hodisani ayni kutib turgan paytlari har qanday qo'rqinchli xabarga nisbatan ta'sirchan bo'lib qoladilar.

Fiziologik shart-sharoitlar. Bu borada charchash, ochlik, alkogol yoki giyohvandlik ta'sirida shirakayflik, surunkali to'yib uxlamaslik va hokozolar insonni nafaqat jismoniy zaiflashtiradi, balki ruhiy jihatdan sodir bo'layotgan holatni tez va to'g'ri baholay olishini pasaytiradi. Bundan kasallikni yuqtirib olishga nisbatan emotsional ta'sirchan bo'lib qoladi, buning hisobiga yuqumlilik ta'sirining boshlanishi kamayib, ommaviy vahimaning yuzaga kelish ehtimoli kuchayib boradi.

Psixologik shart-sharoitlar. Bunga qo'rquvga soladigan voqealarning to'satdan sodir bo'lishi, kuchli ruhiy qo'zg'atish, haddan tashqari ajablanish, cho'chish kabi holatlar misol bo'la oladi.

Ma'kuraviy va siyosiy-psixologik shart-sharoitlar. Insonlar o'zlarining umumiy maqsadlarini aniq tushunmasligi, samarali boshqaruvning mavjud emasligi, buning oqibatida guruhlarining yetarli darajada jipslashmaganligi misol bo'ladi. Amerikalik tadqiqotchilarning izlanishlariga ko'ra, umumiy maqsadlarni angamaydigan, sust jipslashgan va uyushgan guruhlarda minimal xavf-xatar (masalan, oz miqdordagi pullar yo'qolishi yoki obhavoning o'zgarishi kabi xavf-xatarlar) yuzaga kelganda ham vahima qo'zg'atiladilar.

Xitoy va Koreya hukumati koronavirus pandemiyasini sekinlashtirish va to'xtatish ehtimoligini isbotladi. Ular favqulodda qat'iy choralar qabul qildilar. Xitoyda avtoritar rejim ostida bir tomonlama tartibni o'rnatish va bir necha haftaga yoki bu shaxs faoliyatini ommaviy ravishda taqiqlash joriy qilindi. AQSh va Yevropa hukumatlariga esa bunday tartiblarni joriy qilish qiyinchilik tug'dirdi, garchi maktablarning yopilishi, tadbirlar to'xtatilishi, harakatlanishda cheklolvar va masofa saqlashning boshqa ijtimoiy choralariga amalga oshirilgan bo'lsa-da. Italiya esa kasallik avjiga chiqqanida karantin e'lon qildi.

Soxta yangiliklar, fitnal, manipulyatsiya (maqsadlarni oshkor etmay, yashirin boshqarish) va emotsional keskinlashish bu pandemiya, har qanday inqiroz paytidagi qandaydir g'ayrioddiy holat emas, balki odatiy me'yor hisoblanadi va bunga doimo tayyor bo'lish lozim. Bunday yaqqol fakti tan olishning o'zi — axborot gigiyenasiga rioya qilishning birinchi qadami hisoblanadi.

Ikkinchi qadam — bunda aniq feyk, fitnal yoki manipulyatsion xabarlar qayerdan kelyapti, nima uchun internet foydalanuvchilari bularga ishonmoqda,



shuningdek, nima uchun ularni ko'paytirishmoqda kabi masalalarni aniqlashtirish kerak. Gap shundaki, axborotlarning ortib ketishi, noaniqlik tufayli ruhiy zarbalar va emotsional keskinlik sharoitida inson o'zini yo'qotib qo'yadi hamda murakkab savollarga oddiy javoblar topishga harakat qiladi. Xuddi ana shundan konspirolog, targ'ibotchilar va manipulyatorlar taklif etayotgan fitnal, qandaydir mavhumliklar va emotsional singdirishlarga talab yuzaga keladi.

Uchinchi qadam — bu yerda ko'p darajada yolg'on xabar va axborotlar oldida kim eng zaif hisoblanishini o'zi uchun ajratib olish kerak. Koronavirus atrofidagi axborot tarqalishi bilan bog'liq vaziyatlarda tahdid guruhiga oliy tibbiy ma'lumotga ega va kasbi bo'yicha virusolog, epidemiolog yoki infeksionist bo'lmagan, shuningdek, murakkabroq holatlarni sodalashtira va "tunnelli fikrlash"ni tanlay olmaydiganlar ko'proq kiradi. Gumanitar va texnik sohalaridagi oliy ma'lumot shunchaki panatseya (har qanday falokatdan qutqaradigan vosita) emas. Feyklar qurboni axborot epidemiyasi davrida deyarli har kim bo'lishi mumkin.

Ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlarda, hatto OAVlarda koronavirus profilaktikasi va davosi haqidagi ma'lumotlar faol ravishda tarqala boshladi. Kimdir tomonni namakob suvga chayqashni taklif qildi. Kimdir taom yeganda kasallikni yuqtirib olmaslik uchun ko'pincha zanjabil, limon yoki sarimsoqpiyoz iste'mol qilishga chaqirdi, biroq Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ekspertlari buni rad etishdi. Yana kimdir alkogol mahsulotlarini qabul qilish orqali davolanishni taklif etdi, bu ham kompetentli mutaxassislar tomonidan shubhaga olindi. Birov tamaki mahsulotlarini chekishga e'tibor qaratdi, go'yoki virus chekuvchilardan ko'ra, chekmaydiganlarga ko'proq yuqishi ta'kidlandi. AQSh prezidenti Donald Trump ham bu tavsiya beruvchilar orasida alohida ajralib turdi. U ham koronavirusni davolashda bezgak kasalligiga kor qiladigan dori vositalari — xorxin va gidroxlороxin (*olimlarning ta'kidlashicha, bu sog'liq uchun juda xavfli moddalar hisoblanadi*) bilan davolashni taklif etdi.

E'tiborli tomoni shundaki, ushbu afsonalarga hamma birdek ishonadi. Bu xabarlarini faqatgina mutaassib skeptiklar yoki yuqori malakali kadrlar jiddiy qabul qilmadi.

To'rtinchi qadam — eng muhimi. Personal darajada feyk, targ'ibot va fitnalarning ta'sir doirasini bartaraf qilish bo'yicha tak-

tika va strategiyani ishlab chiqishdan iborat hisoblanadi. Boshqacha aytganda, soxta, yolg'on va yashirin ta'limotlarga qarshi "immunitet"ni mustahkamlash lozim bo'ladi. Buni tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi bir nechta murakkab bo'lmagan usullar yordamida amalga oshirish mumkin.

Axborot ongli ravishda kishilar auditoriyasida qandaydir hissiyot — g'azab, achinish, ko'ngil qolishi, qo'rquv yoki vahima uyg'otishga qaratilsa, unda bu shubhasiz manipulyatsiya hisoblanadi. Agarda axborot muallifi e'tirozga o'rin qoldirmay, nasihatga oid so'zlay boshladimi, demak u o'z pozitsiyasini sizga singdirishga harakat qilayotganidan dalolat beradi. Agarda nashr muhim xabar haqida indamay tursa, masalan, fikr bildiruvchi pozitsiyasi yoritilmasa va bu xabar unchalik yorqin tarzda bayon etilmasa, demak bu targ'ibot hisoblanadi.

Axborot gigiyenasini jismoniy gigiyena kabi muhim hisoblanadi. Chunki inson onigiga singdirilgan afsona koronavirusdan ko'ra insoniyatni osonroq sarosimaga solishi mumkin. Bunday vaziyatda asosiy — xulosa qilishga shoshilmaslik kerak, ya'ni yangi tafsilotlar, u yoki bu vaziyat bo'yicha barcha holatlar, ikir-chikirlar ma'lum bo'lmaguncha vaqtidan avval xulosa chiqarmaslik kerak. Shunda feyklar va fitnal ertami, kechmi o'z ta'sirini yo'qotadi.

O'zbekistonda ham koronavirus qayd etilgani xususidagi xabar e'lon qilinganiga ko'p vaqt o'tmay, ayrim yurtdoshlarimiz orasida vahima kuchayib bordi. Shu o'rinda yana bir bora sarosimaga tushib, vahima qilishga asos yo'qligini ta'kidlamochimiz. Sababi, mamlakatimizda bu borada barcha zaruriy choralar ko'rilgan, **dori vositalarining zaxirasi yetarli**. Sanitariya-karantin punktlariga qo'shimcha vrachlar, teplovizor va kontaktiz termometrlar, shaxsiy himoya vositalari ajratilib, faoliyati samaradorligi kuchaytirilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, xulosa tarzida shuni qayd qilish mumkinki, vahima inson organizmida stress holatini kuchaytirib, immun tizimini ishdan chiqaradi. Vaholanki, immuniteti past kishilar virusni yuqtirib olishi ehtimoli katta. Shu boisi vahima va sarosimaga berilmasdan sanitariya-gigiyena qoidalarga qat'iy rioya qilishning o'zi kifoya.

Shahnoza AKRAMOVA,
O'zbekiston Respublikasi
Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti
"Psixologiya va pedagogika"
kafedrasini boshlig'i,
pedagogika fanlari doktori,
dotsent

Maktabgacha ta'limda ekologik ma'rifat va raqamli iqtisodiyot

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2019-yil 24-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida "O'zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-ma'rifat va innovatsiya bilan erisha olamiz. Buning uchun, avvalambor, tashabbuskor islohotchi bo'lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur. Shuning uchun ham bog'chadan boshlab oliy o'quv yurtigacha — ta'limning barcha bo'g'inlarini isloh qilishni boshladik", degan edi. Shuning uchun ham O'zbekistonda 2020-yilga "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" deb nom berildi. 2019-yilning o'zida 5 ming 722 ta davlat, xususiy, oilaviy bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotlari (MTT) tashkil etildi, qamrov ko'rsatkichi 38 foizdan 52 foizga ko'tarildi. Endilikda MTTni milliy kadrlar tizimining "tarbiya" bosqichi emas, balki "ta'lim va tarbiya" bo'g'iniga aylantirish va boshlang'ich ta'limni aynan MTTdan yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqdir.

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-maydagi "O'zbekiston Respublikasida ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida"gi qarorining 3-bobida maktabgacha ta'lim tizimida ekologik ta'limni rivojlantirish bo'yicha 11 ta vazifa belgilab olingan. Mazkur vazifalarning mazmuni va mohiyati MTTda ekologik ta'limni zamon talablari darajasiga olib chiqish, zamonaviy talablar esa ekologik ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni yo'lga qo'yishga qaratilgandir.

Materiallar va metodika. Maktabgacha ta'limda ekologik ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyot qanday yo'nalishda rivojlanishi kerak, degan o'rinni savol tug'iladi. Avvalambor ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyot so'zlar birkimasiga aniqlik kiritib olishimiz darkor. O'zbek tilining izohli lug'atida ilm so'ziga 3 xil ta'rif berilgan. Lekin uning 1-varianti, ya'ni **ilm** — o'qish-o'rganish, tadqiqot, tahlil etish bilan erishiladigan bilim, ko'nikma, ma'lumot, degan ta'rif fanga yaqinroq keladi. Nima uchun yaqinroq, zero insonning "ma'lumot" olishi hali ilmi bo'ldi degani emas. Rus tilida eng ommabop bo'lgan S.I.Ojegovning lug'atida **ilm** — ong orqali borilqini anglash deyilgan. "Vikipediya"da esa **ilm** — anglash faoliyati natijasi yoki individing masala yechimini topishda kerak bo'ladigan ma'lumotlarga ega bo'lishi, deb berilgan. Umuman olganda ilm so'zi turli adabiyotlarda turlicha ta'riflangan. Bizningcha, **ilm**, kishilik jamiyatga tegishli ijtimoiy, to'g'rirog'i kishiga tegishli gumanitar kategoriya bo'lib, u — borliqni ongli ravishda anglash yoki bilish va tushunishdir.

Natijalar va ularning muhkamasi. Maktabgacha ta'limda ekologik ilm — tarbiyalanuvchilarning, to'g'rirog'i bolajonlarning atrof tabiiy muhitni katalar yordamida ongli ravishda anglay olishlari, bilishlari va tushunishlari. Buning asosiy maqsadi bolajonlarda ekologik ta'lim va tarbiya orqali ekologik madaniyatning ilk elementlarini paydo qilish. "Ekologik toza davlatlar"ning birinchi 20 taligidan joy olgan davlatlarda ekologik madaniyatni yuzaga keltirish aynan bog'chadan boshlanadi. Masalan:

- *G'arbiy Evropada* bolalar maxsus xo'jaliklarda yovvoyi hamda uy hayvonlari bilan muloqotda bo'ladi, hattoki ularni parvarish qilish orqali ekologik ta'lim va tarbiyani uch yoshdan olishni boshlaydilar;

- *Finlandiyada* tizimli ekologik ta'lim va tarbiya 5 yoshdan boshlanadi. Ushbu jarayon bog'chalarning o'zida emas, balki maxsus "Tabiat markazlari"da olib boriladi.
- *Shvetsiyaning* atrof-muhitni muhofaza qilish jamiyati va ta'lim bo'yicha Milliy agentligi hamkorligida ekologik ta'lim va tarbiya muammolari bo'yicha umumiy davlat axborot tizimi yaratildi.
- *Germaniyada* ekologik maktabgacha ta'lim bolalarning atrof-muhit haqidagi tasavvurlarini paydo qilish va ularning bilimlarini rivojlantirishga, tabiatni muhofaza qilishga tayyorligini oshirish, o'sib kelayotgan avlodga ekologik mas'uliyatli xulqini shakllantirishga yo'naltirilgan.
- *Yaponiyada* yuksak ekologik madaniyatli shaxsni tayyorlashga atrof-muhit sohasidagi ta'lim dasturlarini amalga tatbiq etish orqali erishildi.

O'zbekistonda ekologik ta'lim umumiy o'rta ta'limda Biologiya, Geografiya,

Tarix, Tabiatshunoslik kabi fanlarga integratsiya qilingan va ekolog-pedagoglar tomonidan olib borilmaydi. O'rta maxsus, professional ta'limda ekologik ta'lim to'liq joriy qilinmagan va soatlar miqdori kam bo'lgani uchun ham aksariyat holda turdosh fan o'qituvchilari tomonidan olib boriladi. Oliy ta'limda ham xuddi shunday holat. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish yo'nalishidagi o'qishga kirish Biologiya va Geografiya fanlaridan test topshirish orqali emas, balki Matematika va Kimyo fanlaridan sinovdan o'tish orqali. Dunyo tajribasidan foydalanish va bunday noekologik ta'limni bartaraf etish maqsadida yuqorida aytilgan "O'zbekiston Respublikasida ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida" qaror qabul qilindi. 2019-yilning 7-avgustdagi O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish hamda O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan qabul qilingan qo'shma qarorda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida **ekologik ilmni yo'lga qo'yish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga joriy etish** masalasi qo'yilgan:

- "Ilk qadam" davlat o'quv dasturiga ekologik ta'lim va tarbiyaga doir tegishli qo'shimchalar kiritish;
- bolajonlarning yosh jihatlari inobatiga olgan tarzda o'quv adabiyotlarini yaratish;
- ekologik burchaklarni tashkil etish va ulardan ta'lim-tarbiya jarayonida samarali foydalanish;

1-jadval

Bir paytning o'zida maktabgacha ta'lim tizimidagi pedagoglar va bolajonlar uchun berilishi tavsiya etiladigan ekologik ilm

Pedagoglar uchun	Bolajonlar uchun
Ekotizim — barcha tirik mavjudotlar, jumladan kishilarning ma'lum bir iyerarxiy (global, regional, lokal) pog'onada turuvchi yashash makoni.	Ekotizim — biz yashayotgan Yer planetasi, qit'a, mintaq, shahar, tuman, qishloq, uy, bog'cha va xonamiz.
Ekologiya — muayyan ekotizimlarda tirik mavjudotlar o'zaro va ularning atrof tabiiy muhiti bilan bo'ladigan aloqadorlik qonuniyatlarini tadqiq qiluvchi fan sohasi, unga doir bilim, ko'nikma va malakalarni beruvchi ta'lim yo'nalishi, ushbu o'zaro aloqadorlik qonuniyatlarini optimallashtiruvchi amaliyot tarmog'i.	Ekologiya — tabiatdan oqilona foydalanish, uni muhofaza qilish va qayta tiklashga qaratilgan fan ta'lim amaliyoti.
Atrof-muhitni muhofaza qilish — ekotizimlarda kechayotgan modda va energiya almashuvining tabiiy xususiyatlarini saqlab qolish ilmi.	Atrof-muhitni muhofaza qilish — "Onatbiat"ni asrashga qaratilgan harakat.
Tabiatdan oqilona foydalanish — ekotizimlardagi tabiiy resurslardan ilmiy asoslangan tarzda foydalanish ilmi.	Tabiatdan oqilona foydalanish — aql bilan tabiatdan foydalanishga qaratilgan harakat.
Tabiatni qayta tiklash — buzilgan ekotizimlarni ilmiy asosda qayta tiklash.	Tabiatni qayta tiklash — buzilgan tabiatni yaxshilashga qaratilgan harakat.
Ekologik ong — ekotizimlar — organizmlar, jumladan kishilarning birgina yashash makoni ekanligini anglash.	Ekologik ong — "Ona tabiat" bizning hayotimizda naqadar kerakligini anglash.
Ekologik madaniyat — ekologik ta'lim orqali olgan bilim, ko'nikma va malakalarni amalga qo'llash darajasi.	Ekologik madaniyat — ekologik ongni amalga qo'llay olish darajasi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida **ekologik burchaklar** avvalgi tabiat burchaklaridan farq qilishi kerak. Unda 1-rasmda ko'rsatilganidek nafaqat jonli yoki jonless tabiat aks etishi, balki o'sha jonli va jonsiz muhit bizning yashash makonimiz tariqasida berilishi va unda 3 xil ko'rinishdagi holat aks etishi lozim: ekotizimlarni muhofaza qilish, ekotizim resurslaridan oqilona foydalanish va buzilgan

- yilning asosiy ekologik taqvim kunlariga bag'ishlangan bayramlarni o'tkazib borish;

- rahbar va mutaxassislarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash kurslariga "Ekologiyaning dolzarb muammolari"ga bag'ishlangan o'quv modulni joriy qilish va h.k.

Maktabgacha ta'limda mazkur Qarorlarning asosiy vazifasi — 2018-yilgacha amalga bo'lgan "Bolajon" va amaldagi "Ilk qadam" davlat o'quv dasturlarida tarbiyalanuvchilarni, (to'g'rirog'i bolajonlarni, zero, MTT tarbiya emas, balki ta'lim muassasasi) tabiat bilan tanishtirish bilan cheklanib qolmasdan, balki ularni **ekologik ilmli** qilish kerakligi uqtirilgan. Bu degani, bolajonlarni tabiat bilan tanishtirish davomida ularni o'rab turgan mahalliy sharoit atrof-muhitidagi ekotizimlarni (yashash joyi, makoni, uyi) muhofaza qilish, undagi tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va buzilganlarni qayta tiklashda kerak bo'ladigan ma'lumotlarga ega bo'lish vazifasi yuklatiladi.

O'zbekistonning maktabgacha ta'lim bosqichida **ekologik ilm** boshqa ta'lim turlaridan tubdan farq qiladi. Unga tegishli o'quv adabiyotlari bir paytning o'zida ham tarbiyalanuvchilarga, ham tarbiyachi, metodist, defektolog, psixologga, ya'ni pedagoglarga tegishli bo'lmog'i darkor (1-jadval). Zero, MTRXQTUMO institutiga malaka oshirishga kelgan mutaxassislarning 90–95 foizi ekologik ilmga tegishli bilim, ko'nikma va malakaga ega emas.



1-rasm. An'anaviy tarzda MTTda tashkil etilgan "Tabiat burchagi" va ekologik burchakni fon tariqasida qo'llash imkoniyatini beruvchi "Jajji ekolog" stendi.

Yilning asosiy ekologik taqvim kunlariga bag'ishlangan bayramlarni o'tkazib borish uchun avvalambor "Ekologik taqvim" ko'rgazmali plakatlarini ishlab chiqish tavsiya etiladi:

- 14-mart — daryo, suv va hayotni saqlab qolishga harakat kuni.
- 22-mart — Butunjahon suv kuni (suv resurslarini muhofaza qilish kuni).
- 1-aprel — Qushlar kuni.
- 7-aprel — Butunjahon salomatlik kuni.
- 15-aprel — Ekologik bilimlar kuni.
- 18–22-aprel — Qo'riqxonalar va milliy bog'lar kuni.
- 22-aprel — Xalqaro Yer planetasi kuni.
- 3-may — Quyosh kuni.
- 12-may — Ekologik ta'lim kuni.
- 15-may — Xalqaro iqlim kuni.
- 22-may — Xalqaro biologik xilma-xillik kuni.
- 5-iyun — Butunjahon atrof-muhitni muhofaza qilish (ekologlar) kuni.
- 17-iyun — Butunjahon cho'llanish va qurg'oqchilikka qarshi kurashish kuni.
- 16-sentabr — Xalqaro Yer planetasining ozon qatlamini muhofaza qilish kuni.
- 4-oktabr — Butunjahon hayvonlarni muhofaza qilish kuni.
- 12-oktabr — Xalqaro tabiiy ofatlardan himoyalash kuni.

Ekologik kunlarni belgilash MTT joylashgan mahalliy sharoitlardan kelib chiqqan tarzda "Taqvim jadvali"ni ishlab chiqish va aynan o'sh kunlarda bayramlarni yoki tadbirlarni o'tkazish tavsiya etiladi. Masalan, cho'l zonasida joylashgan bog'chalarda: Quyosh, iqlim, biologik xilma-xillik, cho'llanish va qurg'oqchilikka qarshi kurash kunlarini taqvim va tadbirlar rejasiga kiritish zarur. Tog'li hududlardagi bog'chalarda: Yer planetasining ozon qatlamini muhofaza qilish, qo'riqxonalar kuni, hayvonlarni muhofaza qilish, tabiiy ofatlardan himoyalash kabi kunlarni taqvim rejasiga kiritish maqsadga muvofiq. Zero, bolajonlarning kundalik faoliyatida yoki ko'z dildarida mazkur atrof tabiiy muhit holati, jarayon yoki voqealar sodir bo'lmoqda.

Kishi, jumladan bolajon ekologik ilmi bo'ldi degani hali ekologik madaniyatni darajaga yetib bordi degani emas. Mazkur darajaga yetib olish uchun bolajon **ekologik ma'rifati**, ya'ni MTTda zamon talabiga javob beradigan ekologik ta'lim olishi lozim. Ma'lumki, ekologik ma'rifat ta'lim orqali, ma'naviyat esa tarbiya orqali bolajonlarga singdirilishi mumkin. 2020-yilni nomlashda "ilm, ma'rifat" so'zlarini birga e'tirof qilishdan maqsad o'zbek xalqi, jumladan yoshlarimizni nafaqat ekologik ilmli, balki zamon

talablariga javob bera oladigan ekologik bilim va ko'nikmalari darajaga yetkazishdir. Maktabgacha ta'limda ekologik ma'rifatning maqsadi — turli miqyosda ekologik xavfsizlikni ta'minlash uchun bolajonlarda dastlabki ekologik bilim va ko'nikmalarni hosil qilish.

MTTda bolajonlarda dastlabki bilim va ko'nikmalarni shakllantirish uchun Maktabgacha ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan rahbar va mutaxassislarining malakasini oshirish kurslariga "Ekologiyaning dolzarb muammolari"ga bag'ishlangan "Maktabgacha ta'limda ekologik ta'lim va tarbiya" o'quv moduli nomi bilan 2 soat nazariy, 4 soatlik ko'chma va 4 soat amaliy mashg'ulotni o'quv rejasiga kiritish maqsadga muvofiqdir. Nazariy mashg'ulotda — ekologik ta'lim va tarbiya tushunchasi, mazmuni va mohiyati ochib beriladi. Ko'chma mashg'ulot ekologik talab darajasida tashkil etilgan MTTda ilg'or tajribani o'rganish va almashirish orqali olib boriladi. So'ngra olingan bilim va tajribaga muvofiq amaliy mashg'ulotda har bir tinglovchi o'zining hududi yoki tashkilotida ekologik ta'lim-tarbiyani yo'lga qo'yish bo'yicha istiqbolli dastur, reja va "yo'l xaritasi"ni ishlab chiqardi va prezentatsiya qiladi. Malaka loyiha ishlari ham aynan MTTda ekologik ta'lim

va tarbiyani tashkil etish, olib borish va ommalashtirishga qaratilgan stendlarni yaratish, metodik ko'rsatmalarni ishlab chiqish, tavsibanomalar berish, maketlar yaratish, infografik multimedia vositasining turli variantlarini berishga qaratilgan bo'lishi lozim.

Institutda qayta tayyorlashning 4 oylik kurslarida "Ekologik ta'lim va tarbiya" o'quv moduli 12 soat, 6 oylik kurslarida 18 soatlik o'quv moduli sifatida berilgan maqsadga muvofiq. Nazariy, amaliy va ko'chma mashg'ulotlar o'rtasidagi nisbat 1(bilim): 1 (ko'nikma): 1 (malaka) nisbatida bo'lgani pedagogik tajribamizdan kelib chiqqan tarzda ma'qul, deb bilimiz. Zero, hozirgi kunda qayta tayyorlashga kelayotgan tinglovchilarning ekologik ma'rifati zamon talabi darajasida deb aytilish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 18-maydagi "Raqamli iqtisodiyot va "elektron hukumat" tizimi infratuzilmalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorining 3.b-bandida "davlat boshqaruvida axborot tizimlarini joriy etish, ushbu sohada yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish" vazifasi qo'yilgan.

Raqamli iqtisodiyot — raqamli texnologiyalarga tayangan iqtisodiy faoliyat, ya'ni elektron biznes va kommersiya bilan bog'liq bo'lgan raqamli tovar ishlab chiqish va xizmatlarni ko'rsatish. Ushbu g'oyani ilk bor fanga 1995-yili AQShning Massachusetts texnologik universiteti professori Nikolas Negroponte olib kirdi. U tovarlarni fizik holat va harakat o'lchami (og'irligi, xomashyo, transport) bo'yicha emas, balki raqamlar orqali ifoda etishni ma'qul deb bildi.

N.Negroponte iqtisodiy munosabatlarda qatnashuvchi barcha narsalarni (obyektlarni) va kishilarni (subyektlarni) raqamli texnologiyalar ko'rinishida aks ettirsa bo'lishi va uni elektron tarzda boshqarish imkonligini isbotladi. Bu uchun iqtisodiyotning katta hajmdagi ma'lumotlar bazasini yaratish, almashish, xohlagan masofaga juda katta tezlikda uzatish imkoniyatini beradi. Masalan, bog'chada "Ekologik burchak"ni yaratish kerak bo'lib qoldi. Ushbu masalaning yechimini jadal sur'atlarda topish uchun Internet orqali ish joyimizda turib quyidagi "qadamlar"ni ketma-ketlikda bajarish orqali raqamli iqtisodiyotdan foydalanimiz:

- 1-qadam: "Ta'lim xizmati" portaliga kiramiz va unda "Ekologik burchak"ni yaratishning turli xil variantlari bilan "Ma'lumotlar bazasi" orqali tanishib chiqamiz;
- 2-qadam: o'zimizning bog'chada mo'ljallagan joyimizga qarab aniq bir variantni tanlab olamiz va uning barcha parametrlarini tahlil qilamiz;
- 3-qadam: "Ekologik burchak"ni tayyorlab beradigan korxonaning barcha rekvizitlari bilan tanishib chiqamiz, imkoniyatlarini baholaymiz, shartlarni o'rganamiz va kafillik darajasini aniqlaymiz;
- 4-qadam: buyurtmani tegishli korxonaga saytiga jo'natamiz va operativ ravishda undan javob olamiz;
- 5-qadam: elektron ravishdagi shartnomani tuzamiz va bizning hisobimiz turgan bank orqali tegishli mablag'ni o'tkazib beramiz yoki depozit hisobidan bank kafil-

ligi orqali buyurtmani bajarishga kirishiladi; 6-qadam: buyurtmaning bajarilish jarayonini, ya'ni "Ekologik burchak" loyihasi, bajarish yo'llari, ishlatiladigan materiallar va jihozlar, xavfsizlik darajasi, kafillik muddatlari haqida Internet orqali nazorat va monitoring olib boramiz;

7-qadam: nazorat esa buyurtma tayyor bo'ladigan kuni aniq qilib olish imkoniyatini yaratadi va transport korxonalarini bilan elektron shartnoma orqali uni o'z muddatida bog'chaga yetkazishni ta'minlaydi.

Bunday masofadan turib barcha amallarni raqamli iqtisodiyot orqali operativ ravishda amalga oshirish uchun, albatta, milliy, mintaqaviy, mahalliy va lokal miqyosda tez ishlaydigan internet tarmog'i va axborot texnologiyalariga ega bo'lishimiz kerak, raqamli ma'lumot va xizmatlar bankini yaratishimizga to'g'ri keladi. Shuning uchun ham "Raqamli iqtisodiyot"ni ko'pincha "Internet-iqtisodiyot" deb ham atashadi.

Respublikamizda "Raqamli O'zbekiston — 2030" davlat dasturini hayotga tatbiq etish orqali yalpi ichki mahsulotni kamida 30 foizga o'stirish, korrupsiyani esa keskin kamaytirish uchun iqtisodiyot sohasidagi raqamli transformatsiyani amalga oshirish, milliy axborot texnologiyalarini rivojlantirish va bu yo'nalishda investitsiyalar jalb etish zarurligini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bir necha bor ta'kidlagan. Maktabgacha ta'limda raqamli iqtisodiyotni joriy qilish — "Telebog'cha" shaklidagi ta'lim va tarbiya sifatini ko'taruvchi resurs bo'lib hisoblanadi. U o'quv, o'quv-metodik, ilmiy-pedagogik, tashkiliy, huquqiy, moliyaviy-iqtisodiy, kadrlar, moddiy-texnik ta'minotni raqamlashtirish orqali ta'lim-tarbiyani yuqori darajaga jadal sur'atlarda olib chiqish imkoniyatini beruvchi kishilik jamiyati faoliyatidir. MTRMOTUMO institutida MTTda raqamli ekologik ta'lim va tarbiyaga o'tish uchun quyidagi mavzular bo'yicha malakaviy loyiha ishlari va ilmiy tadqiqotlar olib borish tavsiya etiladi:

1. MTTda ekologik ta'limni rivojlantirish bo'yicha raqamli elektron katalog yaratish.
2. "Jajji ekolog" mavzusida infografik multimedia vositasini ishlab chiqish.
3. MTTning 5 ta "Rivojlantirish markazlari"da ekologik xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha infografik multimedia vositasini tayyorlash.
4. O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitob"ga kiritilgan hayvonot olami bo'yicha infografik multimedia vosita tayyorlash.
5. O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitob"ga kiritilgan o'simlik olami bo'yicha infografik multimedia vosita tayyorlash.
6. MTTda "Ekologiya burchagi"ni tashkil etish bo'yicha infografik namunaviy stend yaratish.
7. Ekologik sanalarga bag'ishlangan mahalliy sharoitni inobatga oluvchi infografik taqvim plakatlarini tuzish.
8. "Ona tabiat" mavzusida infografik multimedia vositasini ishlab chiqish.
9. Malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslari uchun "Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi" mavzusida infografik stendni yaratish.

Xulosa. Maktabgacha ta'limda ekologik ta'lim va tarbiyani yangi bosqichga ko'taruvchi ilmi, bolajon va pedagoglarning ekologik ma'rifatini shakllantiruvchi ta'limni, zamonaviy axborot texnologiyalarini ekologik boshqaruvga tatbiq etuvchi raqamli iqtisodiyotni olib kirish zamon talabidir.

Asqar NIG'MATOV, geografiya fanlari doktori, professor

Axborot sohasini isloh qilish davr talabi

Bugungi kunda ommaviy axborot vositalari, shu jumladan, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari muassisligidagi davriy bosma nashrlarni chop etish va ommaga yetkazish muhim ahamiyatga ega. Bu esa o'z navbatida nazariy, ilmiy, amaliy masalalarni hal etish, huquqiy mexanizmi takomillashtirishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan joriy yilning may oyida xalq muhokamasiga qo'yilgan ID-17495 raqamli "Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari muassisligidagi davriy bosma nashrlarni qo'llab-quvvatlash va ular faoliyatini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaror loyihasi ham shu maqsadda ishlab chiqilgan.

Mazkur qaror loyihasi yettita band va yana oltita kichik bandlardan iborat bo'lib, unda davlat hokimiyati va boshqaruv organlari muassisligidagi davriy bosma nashrlarning faoliyatini sifatli tashkil etish va ularni rivojlantirish, ommaviy axborot

vositallari tahririyatlari xodimlarining shtat jadvali bo'yicha soni va ularning ish haqi miqdorlarini tasdiqlash va ushbu mehnatga haq to'lash bilan bog'liq xarajatlarni qoplashga mahalliy hokimiyat organlarining viloyat, tuman, shahar budjetidan tashqari jamg'armalari hisobidan yetarli miqdorda mablag' ajratish, tahririyatlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash maqsadida moliyaviy yil yakunida taqsimlanadigan tahririyat sof foydasining muassisa tegishli qismini tahririyat hisobida qoldirish va ulardan maqsadli foydalanilishini nazorat qilish, davriy bosma nashrlarning bosh muharrirlari, xodimlari malakasini oshirish, xususan gazeta va jurnallar elektron nashri nu-

ritishda zarur bo'lgan ko'nikmalarni shakllantirish bo'yicha qisqa muddatli o'quv kurslarini tashkil etish kabi bir qator vazifalar belgilangan.

Mazkur qaror loyihasining o'ziga xos jihati yana shundan iboratki, unda davriy bosma nashrlarda faoliyat yuritayotgan kadrlar masalasi ham ko'tarilgan. Jumladan, loyiha 1-bandida "Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari o'z muassisligidagi davriy bosma nashrlarning faoliyatini sifatli tashkil etish va ularni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratishi lozim"ligi va unda o'z muassisliklaridagi davriy bosma nashrlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ular faoliyatini rivojlantirish, shu jumladan, jurnalist-kadrlar zaxirasini shakllantirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo'yicha 2021/2022 yillarga mo'ljallangan "Yo'l xaritalari"ni ishlab chiqish belgilangan.

"Yo'l xaritalari"ni ishlab chiqishda quyidagilar, jum-

ladan, "2020-yil 1-sentabrga qadar o'z muassisligidagi davriy bosma nashrlarning elektron variantlarini ishlab chiqish va ishga tushirish; ehtiyojmand va faol jurnalistlarning moliyaviy ahvolini yaxshilash bilan bog'liq tadbirlarni amalga oshirish; tahririyat xodimlarining ijtimoiy muhofazasini kuchaytirish, ularni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash, shu jumladan davlat mukofotlariga tavsiya etish orqali rag'batlantirib borish; Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, uning hududiy bo'limlari bilan birgalikda oyda bir kun davlat muassasalari va mahallalarda gazetxonlik kunlarini o'tkazish; davriy bosma nashrlarda davlat organlari va tashkilotlari rahbarlarining xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlari deputatlariga taqdim etgan hisobotlarini chop etishni yo'lga qo'yish xalq deputatlari tuman, shahar, viloyat kengashlari tomonidan tegishincha tuman, shahar, viloyat ijroiya

hokimiyati muassisligidagi davriy bosma nashrlar tahririyatlarining har yarim yillik yakunlari bo'yicha o'z faoliyati, bosma nashr sifat ko'rsatkichlarining o'sish sur'ati, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar hamda istiqbolli rejalar to'g'risida hisobotini amaliy yordam ko'rsatish maqsadida eshitib borish vazifalari belgilanishi nazarda tutilmoqda.

Ushbu Qaror loyihasidagi qoida va ustuvor vazifalar bosma ommaviy axborot vositalari, ayniqsa davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining gazeta va jurnallari tahririyatlarining iqtisodiy ahvolini yaxshilash, ularning ta'minotini ushlab turish bo'yicha muassislar zarur darajada amaliy yordam berishlari, tahririyatlarda faoliyat yuritayotgan xodimlar mehnatini qadrlash, chop ettirilayotgan va xalqimizga yetkazilayotgan ommaviy nashrlarning sifatli bo'lishiga xizmat qiladi.

Noila MUSTAFOYEVA,
Toshkent davlat
yuridik universiteti
Til o'rgatish kafedrasida
katta o'qituvchisi

Besh tashabbus — amalda!

Maktab quchog'idagi muvaffaqiyatlar

Ilm maskanimiz binosi 1962-yilda qurilgan bo'lib, 920 nafar o'quvchining talim-tarbiya olishiga mo'ljallangan. Bugungi kunda esa 46 ta sinfda 2 navbatda 1627 nafar o'quvchi tahsil oladi.

Samarqand shahridagi 14-umumta'lim maktabida o'z ishining ustalari bo'lgan fidoiy o'qituvchilar ko'p. Ular doimiy ravishda tajriba almashib, bir-birlariga o'mak bo'lib kelishadi. 103 nafar pedagog xodimning 102 nafari oliy ma'lumotli. O'quvchilarimiz 2018/2019-o'quv yilida fan olimpiadasining shahar bosqichida ona tili, rus tili, matematika, informatika, tarix, huquq, biologiya fanlaridan sovrinli o'rinlarni egallashdi. Viloyat bosqichida informatika fanidan 11-sinf o'quvchisi Abdulaziz Abduxalilzoda 3-, biologiya fanidan 10-sinf o'quvchisi Rayhona Qushmanbekova 2-o'ringa sazovor bo'ldilar.

O'quvchilarimiz sport bo'yicha ham munosib natijalarga erishmoqda. Ulardan biri Daler Vohidov. U yoshligidan shaxmat bilan shug'ullanib keladi. Daler 2016-yili yoshlar o'rtasida O'zbekiston chempioni bo'ldi, shu yili Tehronda o'tkazilgan musobaqada 2-o'rinni egalladi. 2017-yili Respublika chempionatida 16 yoshgacha bo'lgan o'smirlar o'rtasida 3-o'rin, 2018-yili o'smirlar o'rtasida 2-o'rinni, shu yili Toshkentda o'smirlar o'rtasida Sharqiy Osiyo chempionatida 2-o'rin, 2019-yili o'smirlar o'rtasida O'zbekiston chempionatida 2-o'rinni egalladi.

8-sinfni tamomlagan Amina Mo'minova 2017-yildan buyon basketbol bilan shug'ullandi. Mamlakatimizning bir necha hududlarida o'tkazilgan mu-

sobaqalar g'olibi bo'lgan Amina Qozon (Rossiya) shahrida bo'lib o'tgan xalqaro musobaqada jamoasi bilan 1-o'rinni egallagan.

Yana bir o'quvchimiz Ulug'bek Yoqubov 5 yoshidan boshlab sambo hamda qo'l jangi bilan shug'ullanib, ko'plab sovrinlarni qo'lga kiritgan. U 48 kilogramm vazn toifasida 5 karra respublika va viloyat chempioni bo'ldi. Jangovar sambo sport turi bo'yicha O'rta Osiyo birinchiligi sovrindori.

6-sinfni tamomlagan Ali Bahromov esa 5 yoshidan buyon muaytay bilan shug'ullanadi. U 2013-yilda viloyat chempionligiga, 2015-yili respublika turnirida 3-o'ringa sazovor bo'lgan. 2017-yili esa xalqaro turnir sovrindori, 2018-yili 2006-2007-yilda tug'ilgan o'smirlar o'rtasida O'zbekiston chempioni, 2019-yili viloyat chempionligini qo'lga kiritgan.

Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan besh muhim tashabbus asosida maktabimizda chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqilib, unda san'at, sport, axborot texnologiyalari, kitob o'qishga qiziqishni oshirish, o'quvchi qizlarni ijtimoiy faol hayotga jalb etish masalalariga katta e'tibor qaratildi. Jumladan, birinchi tashabbus bo'yicha ona tili fani o'qituvchisi Dilrabo O'rinova boshchiligidagi "Behbudiy" nomli drama teatri to'garagi tashkil qilindi. To'garakning ish faoliyati asosan o'quvchilarning fanga, kitob va teatr sohasiga bo'lgan qiziqishlarini ort-



tirishga qaratiladi. Hamid Olimjonning "Oygul bilan Baxtiyor" she'riy dostoni, G'afur G'ulomning "Shum bola", O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari", Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" kabi sara asarlari to'garak a'zolari tomonidan sahnalashtirildi.

Ikkinchi tashabbus "Yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasidagi qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratish" borasida o'quv yiliga mo'ljallangan alohida reja ishlab chiqilib, mavjud jismoniy tarbiya fani o'qituvchilari bilan birgalikda har haftaning shanba kuni maktabda "Ommaviy sport kuni" tashkil etib kelindi. Unda sport musobaqalari reja asosida sinflar kesimida o'tkazildi.

Uchinchi tashabbus ijrosini ta'minlash maqsadida maktabning informatika xonasida "Kompyuter dasturlovchi", "Kompyuter saboqlari" kabi to'garaklar tashkil etilgan. Bu to'garaklar ishtirok-

chilari soni kun sayin oshib boryapti.

To'rtinchi tashabbus ijrosini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilgan ishlar yuzasidan sinf o'quvchilari o'rtasida "Farzandimga kitob sovg'a qilaman" tadbiri o'tkazildi.

Beshinchi tashabbus ijrosi yuzasidan o'quvchi-qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash, ularni uy-ro'zg'or yumushlariga o'rgatish va kelajakda kasbga yo'naltirish maqsadida "Yosh pazanda", "Tikuvchilik" to'garaklari tashkil etilgan.

Darvoqe, ilm-ma'rifat o'quvchilari, barcha-barchani ezgulikka undaydi, bilimlar xazinalari sari chorlaydi. O'qituvchilarimiz o'z o'quvchilariga ma'rifatning qadri ulug'ligini chuqur anglatib, ilm yo'lida izlanishdan to'xtamaslikka o'rgatib kelmoqdalar.

Dirafoz MIRZAYEVA,
Samarqand shahridagi
14-umumiy o'rta ta'lim maktabi direktori

Oramizdagi odamlar

“Birinchi o'qituvchining mehrin qo'msayman”

Taniqli iqtisodchi olim Abduhakim MAMANAZAROV bilan suhbat

Inson ongi, tafakkuri uning turmush tarzini belgilashda asosiy rol o'ynaydi. Hayot esa, buyuk Gyote ta'biri bilan aytganda, doimo yashil libosga burkangan daraxtni eslatadi. Demak, u taraqqiyotda. Bunga iqtisodiy bilim asosida yondashsak, turmush va onging yagona formulasi kelib chiqadi. Ilm-u ma'rifatli insonlar bilan suhbatlashsangiz, dilingizda yashirinib yotgan g'uborlar ham tarqab ketadi.

Ostonadan boshlanar Vatan

— Bolaligim va yoshligim Denov shahrida o'tgan, — deydi Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetining Toshkent shahridagi filiali rahbar o'rinbosari Abduhakim MAMANAZAROV. — Shahardagi G'afur G'ulom nomidagi maktabda savod chiqarganman. O'shanda buyuk shoirming: “A'lo mamlakatning a'lo farzandi, bilib qo'yki seni Vatan kutadi”, degan misralari bizni yuksak marralarga chorlagan, desam mubolag'a bo'lmaydi. Mening ham barcha bolalar kabi orzularim cheksiz bo'lgan. Goh vrach, goho injener, bir qarasang — uchuvchi-yu kosmonavt, yana bir qarasang — o'qituvchi bo'lishni orzu qilib qoldirdim. Havasimni keltirgan basavlat, ko'rkam, istarasi issiq odamlarni ko'rganimda, kasbga qiziqish uyg'onavergan.

Hozir ham o'sha damlarni qo'msayman. O'lis xotiralarni men kindik qonim tomgan yurt — Surxon vohasi sari mudom yetaklaydi. Eslab, ko'zlarimdan yosh chiqib ketadi... Qaytib kelmaydigan damlarimni ko'ksimda g'alati tug'yonlar ila yodga olishim baribir men uchun zavqli. Tarix qatiga singayotgan umri bir karra sarhisob qilishga fursat topgandek bo'laman... INSON va UMR haqida xayolga to'laman. Dunyoning sirlariga beixtiyor sherik bo'layotganimni tushungandek bo'laman...

Ishonchni yo'qotishdan o'zi asrasin

— Ota-ona farzandni yomon yo'lga boshlamaydi. Otaning sabog'ini olgan bola hayot so'qmoqlarida qoqilmaydi. Ota-onangiz sizga qanday tarbiya bergan? Jumladan, oilada ota va onaning roli hamda o'rni xususida ham fikringiz.

— Otam Bozorboy hoji ham ishchi, ham dehqon bo'lgan. Bobom Mamanazir Hakimov xo'jalik raisi edi. Katta bobomiz Hakim mirzaboshi Yurchi tarixiy bekligi devonida xizmat qilgan. Uning inisi Bolta oqsoqol shu beklidga o'lponchi bo'lgan. Onam Iqbol hojiona Boboxon qizi uy bekasi edi. Boboxon bobomizning tegirmoni bo'lgan. Bobomning tegirmoni biz o'qigan maktab hududida qolib ketdi. Tegirmoni, uning joylashuvini hozir ham yaxshi eslayman.

Inson o'zining yetti avlodini bilishi kerak. Buni bolalarimga ham uqitirib kelyapman. Otam bilimdon odam sifatida qur'oniy ilm olishimizda biz — bolalariga boshlang'ich ta'lim bergan.

Kitoblarda yozilganidek, ota-onaga gap qaytarish, aytganini qilmaslik kabi boshqa salbiy xususiyatlar oilamizda uchramagan. Ro'zg'ordagi biror-bir tushunmovchilik maslahat bilan bartaraf etilgan. Sho'x bola emasdim. To'ng'ich farzand maqomida ukalarim va singillarim uchun ibrat, ota-onamning yordamchisi edim. Katta oila — katta uy-ro'zg'or madaniyatini, tejamkor va tadbirkor bo'lishni, oila budjetini yuritish madaniyatini taqozo etarkan. Otam ishbilarmon, toparmon-tarmon, hisob-kitobli inson edi. Oilaviy va shaxsiy budjetimga munosabatim shakllanishida otamning ko'p xislatlari yuqgan.

Qush uyasida ko'rganini qiladi, degan naql bor. Bu so'zning ma'nosini har bir ro'zg'or vakilini kuzata turib, o'sha kishining “uyasi” qanday ekanini sirdan turib ham bilib olsa bo'ladi. Bu menga o'z hayot yo'lmda juda asqotgan. Otaning sabog'ini olgan bola hayotda qoqilmaydi. Bola uchun u o'ziga xos ibrat maktabidir. Onaning ham o'z o'rmi borki, buni ta'riflashga til ojiz. Ona — mo'tabar zot. Mir Alisher Navoiy bobomiz aytganlaridek, “birisin oy ayla, birisin quyosh”.

Qalb va dil pokligi

— Hayotda amal qiladigan shioringiz yoxud tutumingiz?

— Intizom, rostgo'ylik, halollik, qat'iyat... Aslida, inson yaratganing bir mo'jizasi. Olloh bizni odam qilib yaratganining o'zi katta in'om. Inson degan nomni sharaf bilan oqlash va unga munosib bo'lish og'ir ekanligini his qilaman.

— Yomon ko'radigan illatingiz?

— Yolg'onchilik, laganbardorlik! Dunyoni yolg'onchi buzadi, deyishadi. Boz ustiga ikki yolg'on bir qasam, degan gap ham bor. Shirin yolg'ondan ko'ra, achchiq haqiqatni afzal ko'raman. Laganbardorlikka toqatim yo'q. Ularga rahmim keladi, desam bo'ladi-yu, biroq gapning rosti ulardan jirkanaman.

— Inson orzu bilan yashaydi, vaqt o'tgan sayin orzular armonga aylanish ehtimoli kuchayadi. Orzu va armonlaringiz?

— Yoshligimdan ko'p narsalarni orzu qilganman. Keyinchalik umr o'tishi bilan orzularga birin-ketin erishib kelaverar



ekansiz. Bolaligimda Marg'uba Sobirova kuylagan bir qo'shiq menga yoqardi:

*Orzularim boshladi yo'lga,
Hali yetar manzilim yiroq...*

— Inson o'zidan ko'ra birovni ovutishni oson deb biladi. Albatta, unda ishtirish qobiliyati bo'lsagina, deydi yana kimdir.

— Buning uchun avvalo o'sha insonning o'zi pok-pokiza bo'lishi, barchaga ibrat, namuna bo'lib hayotda yashash kerak. Biroq yaqin o'tmishda obro'-e'tiborini hayvoniy hoy-u havasga almashtirib, jamiyatdagi o'rmini yo'qotgan odamlar hozirgi kunda ijtimoiy yetakchilik roliga mutloq da'vogarlik qilmoqdalar. Ha, albatta ishonch birdaniga ishonchsizlikka aylanib qolmaydi. Uning chegarasi, ya'ni juda nozik o'lchovi mavjud. Shuning uchun ham buyuk muallim, faylasuf Geraklit aytgan edi: “Ishonch o'lchovi shunday kategoriyaki, uning chegarasidan o'tgandan so'ng insondagi eng muqaddas his-tuyg'ular ham eng dahshatli hodisalarga aylanadi”.

— Nega, ayniqsa ba'zi rahbarlar ishonchdan ishonchsizlik tomon tezda sakrab o'tadilar, uni oyoqosti qiladilar?

— Bunda har doim ham bizga maslahatchi bo'lgan ona falsafaga murojaat qilsak, ishonchdan, ishonchsizlikka o'tish sabablarini tushunib olamiz. “Sabab va oqibat” degan qoida mavjud. Demak, “ishonch bildirish” sabablari ham mavjud, “ishonchsizlik” oqibatlari ham bor. Olaylik, kimgadir, qaysi bir vazifani bajarish yoki mansab uchun ishonch bildiriladi. Bu tabiiy hodisa. Lekin bildirilgan ishonch insonning qaysi fazilat va xislatlari asosida shakllanayapti? Mansab kushisiga o'tirgan rahbar ishini nimadan boshlayapti? Albatta, u mansabga qanday kelib qolganligini tahlil qilishdan-da. Shuning uchun ham u mansabga kelish sabablari va uning bo'lajak oqibatlari ustida bosh qotiradi. Bu esa o'ta nozik, ko'rinnas, hech kim sezmaydigan, inson shaxsiga xos bo'lgan xislat bo'lgani uchun ham, avvalo, yopiq-yashirin, so'ngra esa, ochiq-oydin tus oladi. Rahbardagi uyat o'rni o'zining shax-

siy hoy-u havaslarini qondirish talabi egalaydi. Bunday talab va ehtiyojning chegarasi bo'lmaydi. U kundalik normaga, turmush tarzining talabiga aylanadi. Churchill ta'biri bilan aytganda, “faqat aqldan ozgan kishigina to'siqdan ikki sakrashda o'taman, deb o'ylaydi”.

— Shu yoshga kirib, anglagan haqiqatingiz?

— Jumboqli savol. O'ylab ko'rsam, anglagan haqiqat-

larimdan, anglamaganim ko'proq ekan. Hozircha bilganlarim: vaqt orqaga qaytmassligi, insonga yashash imkoniyati bir marta berilishi...

— Dunyo nima u? Hikmatmi yo himmat?

— Dunyo chek-chegarasiz tushuncha. Birov butun yer yuzini tushunadi, birov butun borliqni. Yana kimdir mol-davlatni tushunadi. Savolingiz mol-dunyo, boylik orttirish haqida bo'lsa, boylik — bu, kambag'allikdan afzal, albatta. Boylik insonga ham, davlatga ham kerak. Boylik esa, o'z-o'zidan kelmaydi. Unga mehnat bilan, tadbirkorlik bilan, aql-zakovat va bilim bilan erishiladi. Lekin boylikka ortiqcha hirs qo'yish yaxshi emas.

— O'zingizning xatolaringizni ko'ra olasizmi?

— Ba'zan.

— Ustoz-shogird an'anasi bugun qanchalik saqlanib qolgan?

— Bizda ustoz-shogird ko'proq hunarmandlik va tasavvuf ilmi bilan bog'liq bo'lgan. Bugungacha bu an'ana hunarmandchilik sohalarida davom etib kelyapti. Ta'lim sohasida ham ustoz-shogird an'anasiga katta e'tibor berish kerak. Chunki ustoz ko'rmagan shogird har maqomga yo'rg'alar, naqli bor va bu bejiz emas.

— Shu damlarda kimni yoki nimalarni sog'inyapsiz, qumsayapsiz?

— Surxon vohasining yarmidan ko'pi ulug'vor tog'lardan iborat. Qolgan qismi dasht va qirliklar. Dastlab Shukur Xolmirzayev asarlari orqali bu yurtni murg'ak qalbim bilan kashf etganman. Alpomish diyori farzandlari tanti, mard, bag'rikeng, oriyatli va o'ziga xos olijanob elligini his qilgan damlar bir-bir ko'z oldimdan o'tadi.

Surxondaryoda qolgan singillarim, yaqin qarindoshlarim va do'stlarimni sog'inaman. Yoshligimni, Qizilsuv va Surxon daryolarini, maktabimni va maktabda o'qitgan muallimlarimning o'g'itlarini, ayniqsa, birinchi o'qituvchim — rahmatli Munavvar Shodiyevaning mehrlarini qo'msayman.

“Ma'rifat” muxbiri
Ma'murjon QIYOMOV
suhbatlashdi.

Ingliz tili

№	Savol	A	B	C	D
<p>Read the text and answer the questions according to it.</p> <p>Algebra, algorithm, quadratic equation, sine function ... just some of the terms of math which would not be known to us but for Al-Khwarizmi, an astronomer, geographer and founder of several branches and basic concepts of mathematics. In Geography he revised and corrected Ptolemy's view and produced the first map of the known world in 830 AD. He worked on measuring the volume and capacity of the earth, and contributed to work related to clocks, sundials and astrolabes. His full name is Abu Abdallah Muhammad ibn Musa Al-Khwarizmi. The last-mentioned name refers to his birthplace, Khwarizm, south of the Aral Sea. He was born around 780 in the town of Kath, part of Khwarizm. Kath is now buried in the sand. He died around 850. He was sent to Baghdad by Caliph Al-Ma'mun and appointed court astronomer. Algebra derived its name from the title of his work "Hisab Al-Jabr wal Muqabalah". Al-Khwarizmi emphasised that he had written his algebra book to serve the practical needs of the people concerning the matters of inheritance, law suits and commerce. He considered his work as worship to God.</p>					
1.	We can conclude from the passage that quadratic equations and sine functions are basic elements of ...	mathematics	astronomy	geography	law suits
2.	How do we know that Abu Abdallah Muhammad ibn Musa Al-Khwarizmi was born in Khwarizm?	from his last name	from his books	from Ptolemy's views	from Caliph Al-Ma'mun
3.	The passage above defines that Caliph Al-Ma'mun called Al-Khwarizmi to his court ...	to deal with celestial objects.	to measure the volume of the books.	to make clocks, sundials and astrolabes.	to serve him as a warrior in the court.
4.	According to the passage, for what reason did Al-Khwarizmi write his algebra book?	He wanted it to serve the practical needs of the people.	Because he was sent to Baghdad by Caliph Al-Ma'mun.	He revised and corrected Ptolemy's view about the first map.	He worked on measuring the volume of the earth.
5.	Choose the correct answer. School is my ... home.	second	the second	two	a second
6.	Choose the correct answer. There is an interesting article ... pensions ... today's newspaper.	on/in	with/on	off/for	on/of
7.	Choose the correct answer. The cost of living index rose ... 70 percent last year.	by	in	up	of
8.	Choose the correct answer. If you don't know what this means, refer ... the dictionary.	to	for	with	at
9.	Choose the correct answer. Water pollution, of course, is not new. We've worried ... it for years.	about	to	at	with
10.	Choose the correct answer. Sabina tried ... vain to stop the water flow.	in	to	for	by
11.	Choose the correct answer. The boss said, "It's time we began planning our work."	The boss said that it was time they had begun planning their work.	The boss said that it was time we began planning our work.	The boss said that it was time we begin planning their work.	The boss said that it was time we begun planning his work.
12.	Choose the correct answer. I ... anything since breakfast so I feel very thirsty now.	haven't drunk	don't drink	didn't drink	wasn't drinking
13.	Choose the correct answer. I really enjoyed the time ... we went to that Chinese restaurant.	when	whom	who	which
14.	Choose the correct answer. English is too hard for some old people ...	to learn	learning	learn	to learning
15.	Choose the correct answer. My book isn't in its place. Someone ... it.	must have taken	was to have taken	would have taken	need have taken
16.	Choose the correct answer. On their tour of Africa, the Browns visited six ... in five ...	countries/day's	country/day	countries/days	countries'/days
17.	Choose the correct answer. — Mike was allowed to see him for a few moments yesterday. — ...	Neither was Pete	So did Jim	So was Sally	Nor Sam did
18.	Choose the correct answer. — Sue's children were allowed to watch the film on TV last night. — ...	Neither did I	Nor was Sam	So was Mary	So did he
19.	Choose the correct answer. Nobody came to the meeting at 3 PM as Mike ... to tell the office workers about it.	forget	forgot	had forgot	had forgotten
20.	Choose the correct answer. I wonder why I feel ... when the teacher asks me to go to the blackboard.	nervous	previous	delicious	religious

№	Savol	A	B	C	D
<p>Read the text and answer the questions according to it.</p> <p>If you're younger, you may use MySpace. Young adults are more likely to be found on Facebook and busy professionals may prefer something like LinkedIn. But at least two of these sites have one thing in common: apart from being social spaces where you can meet and chat to people, share photos and other things, they've added new verbs and nouns to the language in the past couple of years. Let's take a look at some examples. You can facebook your holiday photos (upload them to your Facebook page), facebook someone to see who they are (look him up in Facebook), facebook someone about a party (contact someone through their Facebook page) and ask permission to facebook someone (add them as a Facebook friend). As you can see, "facebook" is a pretty flexible word, and you could say the same about "MySpace", which you will find being used in much the same way all over the Net. LinkedIn has not been used in the same way. While you're "facebooking" or "myspacing" you may also find yourself "commenting" (writing a comment on someone's Facebook or MySpace page).</p>					
21.	According to the passage, what are the two sites that have one thing in common?	MySpace and Facebook	LinkedIn and Facebook	MySpace and LinkedIn	Only Facebook
22.	We can conclude from the passage that ...	LinkedIn is for busy people with professionalism.	People who use MySpace are as old as people who use Facebook.	The three sites have nothing in common at all.	The social networks never added new verbs and nouns to the language.
23.	In this context, 'commenting' means ...	to leave a message for someone on their page	to leave for some place using Facebook or MySpace page	to say something interesting at the meeting	to be working on some problems relating to the Internet
24.	All of the following statements are TRUE, EXCEPT ...	All of the three mentioned sites have provided some new words.	The word "facebook" has various uses.	The new terms have been in use for a couple of years.	You can meet and chat to people, share photos in social spaces.
25.	Choose the correct answer. ... the bottle before taking the medicine.	Shake	Exclude	Float	Include
26.	Choose the correct answer. There are a large number of young people with university ... who look for jobs.	degrees	habits	measures	accounts
27.	Choose the correct answer. Students can ... valuable experience by working on difficult subjects.	gain	suggest	send	spend
28.	Choose the correct answer. At school Jim has had many teachers ... he has admired greatly.	whose	whom	which	what
29.	Choose the correct answer. Don't do everything for ... , Mike must learn to do things for ...	himself/him	him/himself	her/yourself	yourself/him
30.	Choose the correct answer. Mike asked me if he might borrow my bicycle while ... was being repaired.	his	its	her	mine
31.	Choose the correct answer. ... of them could solve the problem. It was very difficult.	None	Somebody	Every	Nobody
32.	Choose the correct answer. I missed the concert because ... told me about it.	nobody	somebody	anybody	everybody
33.	Choose the correct answer. When I opened the door there was ... outside.	nobody	anyone	some	anything
34.	Choose the correct answer. My clothes are absolutely wet. I should dry ...	them	it	their	theirs
35.	Choose the correct answer. I ... this wonderful film when I was 16.	saw	see	have seen	had been seen
36.	Choose the correct answer. — What ... he do for a living? — He works in a bank.	does	do	is	has
37.	Choose the correct answer. This is ... chair.	a	an	hers	—
38.	Choose the correct answer. She is in ... London.	a	an	the	—
39.	Choose the correct answer. Jane's ... student.	a	an	those	—
40.	Choose the correct answer. This chair is It is not soft.	hardly	hard	the harder	hardest
41.	Choose the correct answer. Those books aren't Just buy them.	expensive	expensively	more expensiver	expensivest
42.	Choose the correct answer. ... seven days in a week.	There is	There are	It isn't	Those is
43.	Choose the correct answer. ... not any milk in the jug.	There is	There are	It isn't	Those is

Nemis tili

№	Savol	A	B	C	D
1.	<i>Ergänzen Sie.</i> ... Huhn geht über den Hof, ... Huhn hat gerade ein Ei gelegt.	Ein/das	Das/ein	Ein/der	Der/ein
2.	<i>Ergänzen Sie.</i> Im Stall steht ... Stier, ... Stier ist schwarz und weiß gefleckt.	ein/der	der/der	der/ein	der/-
3.	<i>Ergänzen Sie.</i> Das ist ... Zimmer. ... Zimmer ist gemütlich.	ein/Das	Das/Ein	Ein/Ein	Das/Das
4.	<i>Ergänzen Sie.</i> — Du hast ... Brief von Martina bekommen. Ich habe dir ... Brief auf ... Schreibtisch gelegt.	einen/den/den	den/den/einen	-/den/den	einen/-/den
5.	<i>Ergänzen Sie.</i> Er dankte ... für die Auskunft.	mir	mich	ihn	sie
6.	<i>Ergänzen Sie.</i> Du hast ... noch nicht geantwortet.	mir	mich	man	ihn
7.	<i>Ergänzen Sie.</i> Der Lehrer verbessert ..., wenn ich Fehler mache.	mich	mir	man	ihr
8.	<i>Ergänzen Sie.</i> In ihrer Freizeit malt Bettina, bastelt Schmuck, strickt und häkelt. Sie ist immer auf der Suche ... etwas Neuem.	nach	an	von	bei
9.	<i>Ergänzen Sie.</i> Er hat mir nicht verraten, ... hoch sein Gehalt ist.	wie	wie viel	dass	ob
10.	<i>Ergänzen Sie.</i> — In welchem Verlag erscheint sein neuer Roman? — Sein neuer Roman erscheint in ...selb. Verlag, in ... auch seine ersten Romane erschienen sind.	-em/dem/-en/ dem	-er/der/-en/ der	-en/den/-en/ den	-es/das/-e/ das
11.	<i>Wählen Sie die richtige Präteritum-Form.</i> Der Präsident ... den Journalisten.	empfang	empfängt	empfangt	empfangt
12.	<i>Ergänzen Sie.</i> Es ... gestern geregnet.	hat	ist	wird	habt
13.	<i>Ergänzen Sie.</i> Die Preise ... im letzten Jahr stark ...	sind/gesunken	haben/ gesunken	werden/ gesunken	sind/gesunken
14.	<i>Ergänzen Sie.</i> Das Mädchen ... alles aus Liebe ...	hat/getan	ist/getan	hat/getat	ist/getun
15.	<i>Ergänzen Sie.</i> Für die Projekttag in Biologie ... Thomas und Christoph Plakate und Grafiken ...	haben/ entworfen	sind/ entworfen	haben/ entworfen	sind/ entworfen
16.	<i>Ergänzen Sie.</i> Nachdem wir uns ..., begannen wir wieder zu arbeiten.	ausgeruht hatten	ausgeruht haben	ausruhten	ausruhen
17.	<i>Ergänzen Sie.</i> Er übersetzte Gedichte ... Polnischen ... Deutsche.	aus dem/ins	aus der/in die	von der/nach	vom/zum
18.	<i>Ergänzen Sie.</i> Philipp ist 16. Er will Drehbuchautor werden. In drei Jahren möchte er sich ... einen Job beim Bavaria-Filmstudio bewerben.	um	über	für	auf
19.	<i>Ergänzen Sie.</i> Die Eltern beraten sich ... die Geschenke für ihre Kinder.	über	um	an	von
20.	<i>Ergänzen Sie.</i> Er hat seinen Urlaub ... seiner Tante ... Wien verbracht.	bei/in	zu/in	mit/nach	von/aus
21.	<i>Ergänzen Sie.</i> Am liebsten sitzen wir ... der Mittagszeit ... Garten.	in/im	um/in	an/auf	vor/beim
22.	<i>Ergänzen Sie.</i> Bereits ... acht Jahren verfasste sie Gedichte.	mit	für	durch	bei
23.	<i>Ergänzen Sie.</i> — Gehen Sie diese Strafe ... ; dann kommen Sie direkt ... Nationalgalerie.	entlang/zur	gegenüber/bei	vorbei/an	längs/nach
24.	<i>Ergänzen Sie.</i> Seine Schwester spricht immer so laut. Wenn sie nur leiser sprechen ... !	würde	hätte	wäre	wurde
25.	<i>Ergänzen Sie.</i> Monika hatte meine Frage ganz bestimmt erwartet. Sie schaute mich aber überrascht an, als ... sie meine Frage nicht erwartet.	hätte	wäre	würde	wurde
26.	<i>Ergänzen Sie.</i> Es wäre toll, wenn die Schule um zehn Uhr ...	beginnen würde	begonnen wäre	begonnen hat	begann
27.	<i>Ergänzen Sie.</i> — Möchten Sie diese Zeitschrift abonnieren? — Ja, ich ... gern diese Zeitschrift ...	würde/ abonnieren	wäre/ abonniert	hätte/abonniert	werde/ abonniert
28.	<i>Ergänzen Sie.</i> Nach jahrelang. Arbeitskämpfe wurden viele sozial. Fortschritte erungen.	-em/-e	-em/-en	-en/-en	-er/-e
29.	<i>Ergänzen Sie.</i> Vor dem Fenster hing ein Vorhang aus durchsichtig. Stoff.	-em	-en	-er	-es

№	Savol	A	B	C	D
30.	<i>Ergänzen Sie.</i> — Für deine neue Aufgabe wünsche ich dir immer frisch. Mut und unerschütterlich. Zuversicht.	-en/-e	-e/-e	-es/-en	-en/-es
31.	<i>Ergänzen Sie.</i> Zu diesem französisch. Wein essen wir gern Weißbrot.	-en	-em	-e	-er
32.	Bestimmen Sie die richtige Uhrzeit. 7:50 Uhr	zehn vor acht	fünfzig vor sieben	zehn nach sieben	fünfzig nach acht
33.	<i>Ergänzen Sie.</i> Fühlst du dich heute schon ... als gestern?	besser	gut	lieber	gern
34.	<i>Ergänzen Sie.</i> Heute war es fast so ... wie vorgestern.	heiß	heißer	heißeste	heißes
35.	<i>Ergänzen Sie.</i> Mit jedem Tag wird es ... wärmer.	immer	genauso	als	wie
36.	Die Kinokarten können im Vorverkauf ...	bestellt werden	bestellt worden	bestellt wurden	bestellt haben
37.	<i>Ergänzen Sie.</i> Miriam ist froh, dass sie nicht in der Generation ihrer Mutter hat ... Es gibt riesige Unterschiede zwischen den beiden.	aufwachsen müssen	aufwachsen gemusst	aufgewachsen gemusst	aufgewachsen müssen
38.	<i>Ergänzen Sie.</i> Dieses Thema ... zu besprechen.	ist	hat	wird	muss
39.	<i>Ergänzen Sie.</i> Was ... unter Physik zu verstehen?	ist	hat	kann	muss
40.	<i>Ergänzen Sie.</i> Ich ... heute sehr viel zu tun.	habe	bin	muss	war
41.	<i>Ergänzen Sie.</i> Am Morgen ... immer kalt.	wasche ich mich	wasche ich mir	wasche sich ich	wasche mir ich
42.	<i>Ergänzen Sie.</i> Der Physiker ... wies die Hypothese seines Kollegen ...	be-/	-/aus	ver-/	-/auf
43.	<i>Ergänzen Sie.</i> Er ... richtet Musik an der Volksschule ...	unter-/	-/aus	ein-/	be-/
44.	<i>Ergänzen Sie.</i> Toni ... kam bei mir ...	-/vorbei	-/an	be-/	-/zurück
45.	<i>Ergänzen Sie.</i> Die Mutter hat ihm Geld gegeben, ... er für sie dieses Buch kauft.	damit	dass	um	weil
46.	<i>Ergänzen Sie.</i> — Ich sage es dir, ... du es weißt.	damit	dass	was	weil
47.	<i>Ergänzen Sie.</i> Viola ist in der Schülerversammlung. Ihr Ziel ist, ... alle Schüler in das schulische Leben einbezogen werden.	dass	denn	was	ob
48.	<i>Ergänzen Sie.</i> Sarah fühlt sich wohl, so wie sie ist, ... sie sich eigentlich gar nicht so schön findet.	obwohl	denn	weil	deshalb
49.	<i>Ergänzen Sie.</i> Taschkent ist das größte Industrie- und Kulturzentrum ... in Usbekistan, ... in ganz Zentralasien.	nicht nur/ sondern auch	entweder/oder	weder/noch	zwar/aber
50.	<i>Ergänzen Sie.</i> Tobias liest ... die Politikseiten in der "Süddeutschen Zeitung", ... er findet die meisten Beiträge sehr trocken.	zwar/aber	sowohl/als auch	weder/noch	nicht nur/ sondern auch
51.	<i>Ergänzen Sie.</i> Das Gras war schon im Juli gelb, ... der Sommer war heiß und trocken.	denn	und	aber	oder
52.	<i>Ergänzen Sie.</i> — Warum nimmst du das Buch nicht mit? ... es!	Nimm	Nehmt	Nimmst	Nimm du
53.	<i>Ergänzen Sie.</i> — Hören Sie nicht zu? ... zu!	Hören Sie	Hören	Hört	Hören wir
54.	<i>Ergänzen Sie.</i> Am schlimmsten findet Oliver ... die Krimis oder Horrorfilme, sondern die Nachrichten, die über Kriege und Gewalt berichten.	nicht	keine	nichts	nie
55.	<i>Ergänzen Sie.</i> Tim möchte seine Spanischkenntnisse verbessern und neue Freunde kennen lernen, deshalb ...	hat er sich für eine Sprachreise nach Madrid gemeldet	er sich für eine Sprachreise nach Madrid gemeldet hat	er für eine Sprachreise nach Madrid hat sich gemeldet	hat sich er für eine Sprachreise nach Madrid gemeldet
56.	<i>Ergänzen Sie.</i> Anna war nicht in der Lage, ihre Freundinnen ...	zu besuchen	besuchen	besucht	besuchen würden
57.	<i>Ergänzen Sie.</i> Ich habe den Wunsch, nach Leningrad ...	zu fahren	fahren	gefahren	fahren würden
58.	<i>Ergänzen Sie.</i> Es ist verboten, hier ...	zu schwimmen	schwimmen	geschwommen	schwimmen würden
59.	<i>Ergänzen Sie.</i> ... mich nach meiner Meinung zu fragen, sprach der nur mit meinen Mitschülern.	Anstatt	Um	Dass	Damit
60.	<i>Ergänzen Sie.</i> — Laura kommt gleich. Du kannst ... in ihrem Zimmer warten.	inzwischen	zuvor	zwischen	danach

Tarix saboqlari

Ivan Vasilyevich (chindan ham) kasbini o'zgartiradi

(Oxiri. Boshi o'tgan sonlarda.)

V.Staritskiy o'limi va Novgorod qirg'iniga aslida V.Staritskiy nomi bilan bog'liq bir mish-mish sabab bo'ladi. Emishki, Novgorod shahri bosh ruhoniysi (yepiskop) Novgorod va Pskovda V. Staritskiy taxtga o'tqazib, bu hududni avtonom viloyat shaklida Litva ulug' knyazligi va Polsha qiroli Sigismund Avgust qo'liga topshirmoqchi bo'lgan. Bu mish-mishdan oprichniklar katta voqea yashaydilar. V.Staritskiy qatl etilganidan keyin Yovuz Ivan "fitnachilarni" yo'q qilish uchun oprichniklarning katta qo'shini, tarixchi A.A.Zimiga ko'ra, 15 minglik qo'shin bilan Novgorodga yurish boshlaydi. "Oprichniklar qo'shini tomonidan aholini qatlom, talon-toroj etish yo'l-yo'lakay Tver o'lkasi shaharlaridan boshlandi. Nafaqat savdoga va hunarmandlar, balki barcha aholi qatlami qatlom qurboniga aylandi. Aniq qurbonlar soni ma'lum emas, ammo faqat Tverda taxminan 9 ming kishi o'ldirilgan", — deb yozadi Vernadskiy (*Vernadskiy G.V. Московское царство.*).

1569–1570-yillarda Novgorod shahri qatlom etiladi. Tarixchilarga ko'ra, shaharning 30 minglik aholisining yarmi, ya'ni 15 mingi oprichniklar qirg'ini qurboni bo'ladi. Undan keyin qurg'oqchilik, ocharchilik, shaharda tarqalgan vabo yana minglab kishilar hayotiga zomin bo'ladi. Odamlar hatto odamxo'rlik, ya'ni odam go'shtini yeyishgacha borishadi, deyiladi manbalarda. Novgoroddan keyin qirg'inlar Pskov shahrida ham davom ettiriladi.

L.N.Gumilyov shunday yozadi: "Oprichnina 1565-yili Yovuz Ivaning vos-vos kasali qo'zigan paytda joriy etildi va rasman 7 yil davom etdi. Oprichniklarning vazifasi "hukmdorga nisbatan xoinkli holatlarini fosh etish", ayni paytda, "fitnachilar"ni oprichniklarning o'zlarini aniqlashlari kerak edi. Bu esa ularga istalgan kishini fitnachi deb e'lon qilib, qatl etish huquqini berardi. Birgina ayblovning o'zi gumondorni istalgan turdagi jazoga mahkum etish uchun kifoya edi. Eng yumshoq jazo turi — boshini olish yoki osib o'ldirish edi. Bundan tashqari, oprichniklar gumondorlarni tiriklay o'tda yoqish, tanasini to'rtga bo'lish, terisini shilib olish, qorda muzlatish, itlarga yem qilish, qoziqqa o'tirg'izish... va hokazo qiynoq turlari orqali o'ldirish amaliyotini qo'llardilar (*Gumilyov L.N. Om Pyscu k Poccuu.*)".

QOCHQOQ IVAN. OPRICHNINANING TUGATILISHI

Yovuz Ivaning vos-vos kasalligi shu qadar ediki, uning ko'ziga hamma fitnachi bo'lib ko'rinar, hatto chet elga qochib ketish yo'llarini ham o'ylardi. 1567-yili Angliya qirolichasi Yelizavetaga yo'llagan maxfiy maktubida Yovuz Ivan hatto

qirolichasiga, har ehtimolga qarshi, "o'zaro siyosiy boshpana berish"ga kelishuvni taklif etadi. O'z navbatida qirolicha sarga: "Agar mamlakatingizda biror baxtsizlik yuz bersa, ishonitirib aytamizki, sar bizning zaminda do'stona kutib olinadi", deb javob qiladi (*Vernadskiy G.V. Московское царство.*).

1571-yili Qirim xoni Davlat Keray Usmonli davlati ko'magi bilan Rusga navbatdagi hujumini boshlaydi va poytaxt Moskvani ham bosib oladi. Novgorod shahrida oprichnik qo'shinlari bilan aholini qatlom etish bilan mashg'ul Yovuz Ivan Moskvaga qaytadi, ammo vahimaga tushib, o'z jonini qutqarish maqsadida Moskvaga kirmasdan Rostov shahriga qochadi. Mamlakatni qutqarish uchun sar yoki uning ishongan "xavfsizlik xizmati" — oprichnina qo'shinlari emas, balki aynan sar tomonidan rad etilgan milliy boshqaruv tizimi — zemshina qo'shinlari qo'mondonlari: knyaz I.D.Belskiy, yarim tatar boyar I.F.Mstislavskiy va knyaz M.I.Vorotinskiylar mudofaaga kelishadi va Davlat Keray hujumini qaytarishadi. Orta qaytarkan, Davlat Keray Moskvaga shahriga o't qo'yadi va 3 soat ichida shahar yonib bitib, kuli ko'kka sovriladi. Yo'l-yo'lakay qirimliklar ruslarning ko'pgina shaharlarini talon-toroj etib, minglab harbiy asirlar bilan ortga qaytishadi. Moskvani olganligi uchun Davlat Kerayga qirimliklar tomonidan "taxt olgan" laqabi beriladi.

1572-yili Davlat Keray yana Moskvaga qo'shin tortadi. Yovuz Ivan Davlat Keray nomini eshitganda shu qadar vahimaga tushadiki, bu gal davlat xazinasini olib Novgorod shahriga, go'yoki shvedlar bilan tinchlik to'g'risida sulh tuzish uchun, aslida esa boshpana istab ko'chib o'tadi. Qirimliklar hujumini qaytarish uchun sar zemshina va oprichnina qo'shinlaridan iborat harbiy kuchlarni safarbar etadi, ammo ular o'rtasida kelishmovchilik chiqib, sar oprichninaning butunlay foydasiz tashkilot, aksincha, mamlakat birligi uchun xatarli ekanligiga yana bir bor iqor bo'ladi. Shunga qaramasdan, bu gal Davlat Keray butunlay mag'lubiyatga uchraydi. Yovuz Ivan Moskvaga qaytadi va 1572-yili oprichnina bekor qilinadi. G.V.Vernadskiy yozadi: "Ko'pchilik tarixchilarga ko'ra, oprichnina rasman bekor qilingan, oprichniklarning eng jirkanch kirdikorlari to'xtatilgan bo'lsa-da, aslida sar o'limigacha bu institut "dvor" nomi bilan faoliyatini davom ettirdi. Bizningcha esa, bu institut keyingi davrlarda, xususan Lenin, Stalin davrlarida ham davom ettirildi..."

"IVAN VASILYEVICH KASBINI O'ZGARTIRADI"

Yovuz Ivaning sobiq qo'mondoni Andrey Kurbskiyning yozishicha, oprichnina joriy etilishidan ancha oldin, 1553-yili, Yovuz Ivan monax Vassian Toporokov bilan uchrashadi va Vassian unga: "Agar mutlaq hokim (samoderjes) bo'lishni istasang, hech qachon yoningda o'zingdan aqlliroq

maslahatchilarni tutma", deb nasihat qiladi (*O'sha asar*). Bu nasihatga Ivan qanchalik amal qilganligi bizga ma'lum emas, balki Yovuz Ivan o'z tabiatidan kelib chiqib, maslakdoshlari, unga sodiq bo'lgan mulozimlari, "o'zidan aqlli" kishilarning aksariyatini qatag'on, qatl etgan, desak to'g'riroq bo'ladi.

1572-yili Qirim xoni Davlat Keray ustidan qozonilgan g'alabada qo'mondonlar M.I.Vorotinskiy, N.M.Odoyevskiy va M.Y.Morozovlar katta hissa qo'shadi va xalq qahramonlariga aylanadi, bu holat, albatta, o'sha paytda Novgorodda qochib-pisib yurgan Yovuz Ivaning nafsoniyatiga tegadi. 1573-yili yana Qirim tatarlari hujumga tayyorlanyapti, degan mish-mish tarqaladi, sar mazkur uch qo'mondonni Oka daryosi mudofaa chizig'iga safarbar etadi va "xo'in" sifatida ularni o'sha yerda, poytaxtdan narida, qatl etishga buyuradi. Garchi oprichnina davridagi kabi bo'lmas-da, ko'zga ko'ringan shaxslarni qatl etish yana davom etaveradi.

"Bu qatllar boyar va yuqori lavozimli amaldorlarda yana sarga nisbatan g'azab va nafarat uyg'otdi. Ivan IV yana oprichnina joriy etish arafasida bo'lgani singari xavotirga tusha boshladi. Bu gal sar o'ziga qaratilgan g'azabga chap berish uchun boshqacha — ayyorona bir yo'l tanladi", — deb yozadi G.V.Vernadskiy.

Xullas, 1575-yili, oprichnina bekor qilingandan keyin 3 yil o'tib, Yovuz Ivan oliy hokimiyatni boshqa bir kishiga topshirib, o'zini oddiy o'lka knyazi sifatida taqdim etadi. Ya'ni bu gal Yovuz Ivan o'ziga "Moskva knyazi" unvonini qabul qilib, oliy hokimiyat boshlig'iga "Butun Rusning ulug' knyazi" unvonini beradi. "Sar" degan maqom esa o'rtada kimga tegishli ekanligi tushunarsiz bo'lib qoladi. Yovuz Ivaning bundan ko'zlagan maqsidi, G.V.Vernadskiyga ko'ra, o'ziga qaratilgan barcha g'azab va nafatni ana shu bo'shliqqa yo'naltirish edi.

Ammo "Butun Rusning ulug' knyazi", birinchidan, Yovuz Ivan o'ta sodiq, o'ziga yuklatilgan majburiyatni jiddiy qabul qilmasdan, Yovuz Ivaning maxfiy buyruqlarini astoydil bajaradigan shaxs bo'lishi, ikkinchidan, u knyazlar va rus boyarlari naslidan bo'lmasligi kerak edi. Shunday odam topiladi.

Xullas, 1575-yilning 1-sentabrda Chingizxon naslidan bo'lgan Simeon Bekbo'latovich "Butun Rusning ulug' knyazi" deb e'lon qilinadi.

Uning asl ismi cho'qintirilishidan oldin Sainbo'latxon bo'lib, 1560-yili Yovuz Ivan tomonidan Qosimov xonligi xoni etib tayinlanadi. Uning otasi Bekbo'latxon asli ashtarxoniy (hojitarxoniy, astraxanlik) shahzodalardan bo'lib, Hoji Tarxon Yovuz Ivan tomonidan bosib olingach, 1558-yili, Bekbo'latxon No'g'ay xonligidan Moskvaga Yovuz Ivan xizmatiga chaqiriladi. Bekbo'latxonning otasi Ahmadxon

Katta O'rda xoni, uning otasi Kichi Muhammadxon esa Jo'ji Ulusi(Oltin O'rda) ning so'nggi xoni bo'lgan edi. Xullas, bu shajara Jo'jixon orqali Chingizxoniga borib taqaladi. Sainbo'lat 1573-yili Moskva shahrida Simeon ismi bilan nasroniylikni qabul qiladi. 1573–1575-yillarda Livoniya urushida o'zining Qosimov xonligi tatar(turkiy)laridan iborat lashkari bilan ishtirok etadi.

"SHOH SOXTA EKAN"

G.V.Vernadskiyga ko'ra, Yovuz Ivan ham o'z zamondoshlari qatori xurofat, irim-sirimlar, bashoratlariga qattiq ishongan. Tarixchi XVII asrda yozilgan "Piskaryov yilnomachisi" ("Пискаревский летописец") dan shunday iqtibos keltiradi: "Ba'zi odamlar gapirishadiki, Simeoning (taxtga) o'tqazilishining sababi — bashoratchilar: "mana shu yil Moskva sari o'ladi", deb Ivanni ogohlantirishgan. Boshqalar esa (Ivan) odamlarning munosabatini bilish uchun shunday qildi, deb hisoblashadi".

Har holda, 1575-yil o'tadi, faqat 1576-yilning 29-yanvarida Yovuz Ivan Angliya qirolichasi elchisi J.Silvestr bilan bo'lib o'tgan suhbatda o'z rejasini ochiqchalik: "Biz boshqa bir hukmron oila vakilini go'yoki taxtga o'tirgan qilib ko'rsatgan bo'lsak-da, ammo bu bizning iste'foga ketganimizni bildirmaydi. To'g'rirog'i, qaror qilsak, yana bu vazifani o'z zimmamizga olishimiz mumkin va Tangri irodasi bilan shunday qilamiz ham, chunki unga toj kiydirilmagan yoki saylanmagan, shunchaki bizning xohishimiz bilan taxtga o'tqazilgan edi (*Vernadskiy G.V. Московское царство.*)".

Oprichnina bekor qilingandan keyin Yovuz Ivan o'zini bir qadar himoyasiz, yolg'iz his eta boshlagan edi. Simeon Bekbo'latovich taxtda o'tirgan bir yil mobaynida Yovuz Ivan yana o'zining shaxsiy xavfsizlik xizmatini shakllantiradi, o'z yaqinlari, tarafdorlarini atrofiga to'playdi. Simeon hukmronligi davrida Qirim tatarlari ham Rusga hujum qilmaydi.

Shu yili Sharqiy Ovro'poda ham muhim siyosiy o'zgarishlar sodir bo'ladi, xususan, 1576-yilning 1-mayida Polsha qiroli va Litva ulug' knyazi sifatida Stefan Batoriya toj kiydiriladi. Stefan Batoriya nomzodi Usmonli davlati tomonidan ham qo'llab-quvvatlanadi, ammo Moskva davlati uchun g'ayratli, kuchli qo'mondon bo'lgan Stefan Batoriya taxtga o'tirishi xavfli edi. Yana Moskva va Litva o'rtasida urush holati yuzaga keladi va 1576-yilning 1-sentabrda, roppa-rosa bir yil o'tib, Yovuz Ivan "Butun Rusning ulug' knyazi" maqomini Simeon Bekbo'latovichdan qaytarib oladi va uni Tver ulug' knyazi etib tayinlaydi.

Abduvohid HAYIT

Tinglang — o'rganing!

Chet tili o'rganishning har bir yo'nalishi (o'qish, yozish, tinglab tushunish va gapirish)da texnologik vositalar qo'l keladi. Masalan, tinglab tushunish uchun albatta kompyuter, pleyer, CD disklar bo'lishi lozim. Tinglab tushunish til o'rganishning eng muhim qismlaridan biridir. Bunda o'quvchi bir paytning o'zida so'zlovchining talaffuzi, grammatik qoidalarga rioya qilganligi, so'z boyligi va uning ma'nolariga e'tibor berishi talab qilinadi.

Ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishda o'quvchilar ham axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yaxshi bilishi va ulardan foydalana olishi muhim omil hisoblanadi. Chet tilini zamonaviy texnologiyalardan foydalanib o'rgatish va o'rganish eng samador usullardan biri hisoblanadi.

Shuningdek, internet haqiqiy til muhitini his etishga yordam beradi va uning yordamida tilni o'rganishga ehtiyoj shakllanadi. Chunki mazkur tilda so'zlashuvchilar bilan muntazam muloqotda bo'lishga to'g'ri kelishi, turli axborotlardan foydalanish, filmlar to-

mosha qilish, qo'shiqlarni tushunish istagi paydo bo'lishi mumkin. Turli ijtimoiy tarmoqlar orqali xat yozish bilan yozish mashqini takomillashtirish mumkin. Ta'lim jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarini olib kirish ulardan maqsadli, to'g'ri foydalanish, ular orqali o'quvchida chet tiliga bo'lgan qiziqishni o'rttirish, o'qitish samaradorligini oshirish mumkin. Bu orqali ta'limning innovatsion texnologiyalaridan foydalanishga imkoniyat tug'iladi va talab ortadi.

Shahnoza YUSUPOVA,
Shovot tumanidagi
38-maktab o'qituvchisi

Otaboyev Sherzodbek Xudayberganovichning 08.00.12 — "Mintaqaviy iqtisodiyot" ixtisosligi bo'yicha "Hududlar mutanosib rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish" mavzusidagi (iqtisodiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Prognozlash-tirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.14/30.12.2019.1.84.01 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 29-may kuni soat 14:00 dagi onlayn(masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100011, Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy.
e-mail: info@ifmr.uz, exat@ifmr.uz

Adilov Sarvar Qaxramonovichning 13.00.04 — Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha "Erkin kurash sportchilarining koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirish va texnik-taktik harakatlari samaradorligini oshirish texnologiyasi" mavzusida (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019. Ped.28.01 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 3-iyun kuni soat 15:30 dagi onlayn(masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko'chasi, 19-uy.
Tel/faks: (70) 717-17-79, 717-17-76; e-mail: uzdjtsu@uzdjtsu.uz

Yegamberdiyev Shuxrat Satimbayevichning 08.00.03 — "Sanoat iqtisodiyoti" ixtisosligi bo'yicha "Sanoat tarmoqlarida mahalliyashtirishdan foydalanishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish" mavzusidagi (iqtisodiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Prognozlash-tirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.14/30.12.2019.1.84.01 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 29-may kuni soat 16:00 dagi onlayn(masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100011, Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy.
E-mail: info@ifmr.uz, exat@ifmr.uz

Ashurova Umida Alisherovnaning 14.00.01 — "Gestatsion gipertenziyada homiladorlikni olib borish va uning klinik-genetik rivojlanish xususiyatlari" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent pediatriya tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.12.2019. Tib.29.01 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 29-may kuni soat 11:00 dagi onlayn(masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100140, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Bog'ishamol ko'chasi, 223-uy.
Tel/faks: (71) 262-33-14; e-mail: tashpmi@gmail.com

Dauletova Mexriban Jarilkasinovnaning 14.00.01 — "Miokarditli homilador ayollarda gestatsiya va tug'ruqning o'ziga xos kechishi" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent pediatriya tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.12.2019. Tib.29.01 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 29-may kuni soat 12:00 dagi onlayn(masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100140, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Bog'ishamol ko'chasi, 223-uy.
Tel/faks: (71) 262-33-14; e-mail: tashpmi@gmail.com

Xoliqulov Doniyor Baxtiyorovichning 05.02.01 — Mashinasozlikda materialshunoslik. Quyumachilik. Metallarga termik va bosim ostida ishlov berish. Qora, rangli va noyob metallar metallurgiyasi, materialshunoslik va metallurgiya yo'nalishlari ixtisosligi bo'yicha "Qimmatbaho metallarni ajratib olish maqsadida mis, rux sanoati keklari va erimasini qayta ishlash texnologiyasini ishlab chiqish" mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti "Fan va taraqqiyot" DUK huzuridagi DSc.03/30.12.2019.K/T.03.01 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 4-iyun kuni soat 10:00 dagi onlayn(masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100095, Toshkent shahri, Mirzo G'olib ko'chasi, 7-"A" uy.
Tel: (71) 246-39-28; faks: (71) 227-12-73; e-mail: gupti@inbox.uz

Qo'chchiyev Ulug'bek Mirzamashrabovichning 08.00.04 — Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti ixtisosligi bo'yicha "Chorvachilik xo'jaliklariga xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish" mavzusidagi (iqtisodiyot fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligi mexanizatsiyalash muhandislari instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.01.2020.I.10.03 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 3-iyun kuni soat 10:30 dagi onlayn(masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100000, Toshkent shahri, Qori Niyoziy ko'chasi, 39-uy.
Tel/faks: (71) 237-46-68, 237-19-45; e-mail: admin@tiame.uz

To'xboeva Nilufar Mamadiyorovnaning 18.00.01 — Arxitektura nazariyasi va tarixi. Arxitektura yodgorliklarini ta'mirlash ixtisosligi bo'yicha "Movarounnahrda Temuriylar me'moriy merosini tadqiq etishning yangi aspektlari" mavzusidagi (arxitektura fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent arxitektura-qurilish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.A.11.02 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 2-iyun kuni soat 10:30 dagi onlayn(masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100011, Toshkent shahri, Abdulla Qodiriy ko'chasi, 7-"V" uy.
Tel/faks: (71) 234-11-37, 241-13-90; e-mail: info@taqi.uz

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi quyidagi bo'sh (vakant) va tanlov muddati tugagan kafedra mudiri, professor-o'qituvchi lavozimlariga shartnoma asosida tanlov e'lon qiladi:

→ "Dinshunoslik va jahon dinlarini qiyosiy o'rganish UNESCO" kafedrasi bo'yicha:

- ✓ kafedra mudiri;
- ✓ o'qituvchi-stajyor — 1 ta.

→ "Islomshunoslik va islom sivilizatsiyasini o'rganish ISESCO" kafedrasi bo'yicha:

- ✓ dotsent — 1 ta;
- ✓ o'qituvchi-stajyor — 1 ta.

→ "Islom tarixi va manbashunosligi-IRCICA" kafedrasi bo'yicha:

- ✓ kafedra mudiri;
- ✓ o'qituvchi — 1 ta.

→ "Arab tili va adabiyoti al-Azhar" kafedrasi bo'yicha:

- ✓ kafedra mudiri;
- ✓ dotsent — 2 ta;
- ✓ katta o'qituvchi — 1 ta;
- ✓ o'qituvchi-stajyor — 1 ta.

→ "O'zbek tili va mumtoz Sharq adabiyoti" kafedrasi bo'yicha:

- ✓ dotsent — 1 ta.
- "Chet tillari" kafedrasi bo'yicha:
- ✓ kafedra mudiri;
- ✓ katta o'qituvchi — 2 ta;
- ✓ o'qituvchi-stajyor — 2 ta.

→ "Din psixologiyasi va pedagogika" kafedrasi bo'yicha:

- ✓ o'qituvchi — 3 ta.

→ "Xalqaro munosabatlar" kafedrasi bo'yicha:

- ✓ katta o'qituvchi — 1 ta.

→ "Islom iqtisodiyoti va moliyasi, ziyorat turizmi" kafedrasi bo'yicha:

- ✓ professor — 1 ta;
- ✓ dotsent — 1 ta;
- ✓ o'qituvchi-stajyor — 1 ta.

→ "Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari" kafedrasi bo'yicha:

- ✓ o'qituvchi — 1 ta.

Tanlovda qatnashish uchun quyidagi hujjatlar taqdim etilish lozim:

1. Rektor nomiga ariza.

2. Xodimlarni hisobga olish bo'yicha shaxsiy varaqa va tarjimai hol.

3. Oliy ma'lumoti, ilmiy daraja va unvoni haqidagi diplomlar.

4. Malaka oshirigani haqidagi guvohnoma nusxalari.

5. Ilmiy ishlari ro'yxati.


6. Tanlovdan o'tayotgan shaxsning faoliyati haqida hisobot.

7. Professor-o'qituvchilar darsini o'rganish sifat komissiyasining xulosalari.

8. Kafedraning professor-o'qituvchi faoliyati, ochiq darslari tahlili muhokamasiga bag'ishlangan majlisi qarori.

9. Pasport nusxasi.

10. Ma'lumotnoma (obyektivka).



Tanlov muddati — e'lon chiqqan kundan boshlab 1 oy.

Murojaat uchun manzil: Toshkent shahri, Shayxontohur tumani,

A.Qodiriy ko'chasi, 11-uy.

Telefonlar: (71) 244-00-91, 241-18-09.

Nashrimizga obuna bo'lishni istaganlar uchun "O'zbekiston pochta" AJ va "Matbuot tarqatuvchi" AKning hududiy filiallari telefon raqamlari havola etilmoqda.

"O'zbekiston pochta" AJning korxonalari telefon raqamlari

"Matbuot tarqatuvchi" AKning korxonalari telefon raqamlari

№	Hududiy filiallar	Telefon	№	Hududiy filiallar	Telefon
1	Toshkent shahri filiali	(71) 233-73-56	8	Xorazm filiali	(62) 228-51-71
2	Andijon filiali	(74) 223-26-24	9	Surxondaryo filiali	(95) 501-01-95
3	Qoraqalpog'iston filiali	(61) 222-14-43	10	Toshkent filiali	(71) 268-22-56
4	Qashqadaryo filiali	(75) 221-04-62	11	Samarqand filiali	(66) 229-49-27 229-51-16
5	Jizzax filiali	(90) 538-02-69	12	Farg'ona filiali	(73) 244-47-79
6	Namangan filiali	(69) 233-03-67	13	Sirdaryo filiali	(95) 510-01-94
7	Buxoro filiali	(65) 223-48-93	14	Navoiy filiali	(91) 335-66-62

№	Hududiy filiallar	Telefon	№	Hududiy filiallar	Telefon
1	Toshkent shahri	(71) 233-67-98	8	Xorazm viloyati	(62) 227-48-55
2	Andijon viloyati	(74) 223-82-13	9	Surxondaryo viloyati	(76) 221-91-18
3	Qoraqalpog'iston Respublikasi	(61) 222-88-63	10	Toshkent viloyati	(71) 199-76-66
4	Qashqadaryo viloyati	(75) 225-40-27	11	Samarqand viloyati	(66) 234-22-53
5	Jizzax viloyati	(72) 222-40-01	12	Farg'ona viloyati	(73) 244-50-77
6	Namangan viloyati	(69) 239-10-88	13	Sirdaryo viloyati	(67) 225-11-22 225-11-44
7	Buxoro viloyati	(65) 221-56-90	14	Navoiy viloyati	(36) 223-26-86

Yakka tartibdagi obunachilar uchun nashr indeksi: 149
Korxonalar va tashkilotlar uchun nashr indeksi: 150

Manzil: 100000, Toshkent sh., Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy.
Tel.: (71) 233-50-55, faks: 233-99-15.

Bizni internetda ham kuzating! www.marifat.uz

e-mail: info@marifat.uz



/marifat.uz



@marifatziyo



Barcha abituriyentlar, ota-onalar va o'qituvchilar diqqatiga!

"Marifat" gazetasi sahifalarida:

abituriyentlar uchun

DTM testlari darajasidagi sinov testlari

o'qituvchilar uchun

PISA

PIRLS

TIMSS

testlardan namunalar e'lon qilina boshlandi.



Bundan tashqari, o'tgan yilgi kirish imtihonidagi murakkab testlar yechimiga doir

SHARHLAR:

IZOHLAR:

O'QUV LUG'ATLARI

muntazam berib boriladi. Shu bilan birga,

o'qituvchi-murabbiylar uchun

ATTESTATSIYA TESTLARI dan

namunalar ham e'lon qilinadi.



Yakka tartibdagi obunachilar uchun nashr indeksi 149
Korxonalar va tashkilotlar uchun nashr indeksi 150

Manzil: 100000, Toshkent sh., Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy.
Tel.: (71) 233-50-55, faks: (71) 233-99-15.



Vaqtdan yutqazmang. Nashrimizga tezroq obuna bo'ling! Gazetaning o'z vaqtida yetib borishini istasangiz, "O'zbekiston pochta" AJ va "Matbuot tarqatuvchi" AKning hududiy filiallariga murojaat qiling!

"Marifat" gazetasiga 2020-yil uchun obuna davom etadi.

Bizni internetda ham kuzating!

www.marifat.uz



/marifat.uz



@marifatziyo

Marifat

TA'SIS ETUVCHILAR:


O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi,
O'zbekiston Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi,
O'zbekiston Ta'lim, fan va madaniyat xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi.

Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan. Indeks: 149, 150, V-4150. Tiraj 9183. Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan, qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFONLAR:

qabulxona — (71) 233-50-55;
kotibiyat — (71) 233-99-15;
reklama va marketing bo'limi — (71) 233-42-92 (faks), (71) 233-56-00.



"Marifat" dan materiallarni ko'chirib bosish tahririyat ruxsati bilan amalga oshirilishi shart.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrib qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

MANZILIMIZ:

100083, Toshkent shahri, Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy.
Web-site: www.marifat.uz

Dizaynerlar: Malohat Toshova, Faxriddin Rahimov.
Navbatchi muharrir: Mahmud Rajabov.
Navbatchi: Faxriddin Rahimov.

Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
Korxonalar manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

O'ZA yakuni — 21.30 Topshirildi — 22.40

1 2 3 4 5 6